

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI
“PEDAGOGIKA” KAFEDRASI**

Qo'lyozma huquqida

UDK 37;371

YUSUPOV MUHAMMAD MAXMUDOVICHNING

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID
TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH**

5 A 110901 - PEDAGOGIKA TA'LIM YO'NALISHI

MAGISTR

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

ruxsat berildi. _____

«Pedagogika» kafedrasini mudiri

prof. K.Hasanova _____

Ilmiy rahbar:

dots. Abdumannotov A. _____

M.O'.

SAMARQAND-2013

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish – pedagogik muammo sifatida.....	7
1.2. Ilmiy-adabiy manbalarda kasb-hunarga yo'naltirish masalasi.....	14
1.3. Kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari.....	22
II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI.....	29
2.1. Dars jarayonida kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish.....	29
2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish.....	44
III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIGI.....	63
3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish va uning natijalari tahlili.....	63
XULOSA	72
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	74
Ilovalar	77

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Ma'naviy barkamollik insonning ruhi poklanishi, axloqiy ong va hissiyotlarga ega bo'lishi, halol va pok yashashi, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishni oliy maqsad deb bilishdir. Xalqimiz azaldan ma'naviyat, madaniyat, axloq masalalariga alohida e'tibor qaratib kelgan.

Respublikamizda o'tgan davr mobaynida qo'lga kiritgan yutuq va natijalarni, mamlakatimizning salohiyati va qudrati, uning xalqaro maydondagi nufuzi tobora yuksalib borayotganligini, tub islohotlarimizning mohiyati va ahamiyatini aholi keng qatlamlariga yanada kengroq ochib berish va xalqaro jamoatchilikka yetkazishda ta'lim tizimi, barkamol avlod tarbiyasida yuz berayotgan tub ma'naviy, ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Zero, bu jarayon mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi maqsad va vazifalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda, fan-texnikaning jadal taraqqiyoti sharoitida har bir davlat o'zining istiqbol rejalarini belgilar ekan, kelajakda ushbu rejalarni amalga oshiruvchi yosh avlod qobiliyatlarini rivojlantirishga, intellektual salohiyatni yuksaltirishga, ma'naviyatini boyitishga alohida e'tibor berish davr talabidir. Shu sababli mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning haq-huquqlarini muhofaza qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2010 yilgi Davlat byudjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilganligi ham kelajagimiz vorislariga bo'lgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasidir.

Zero, yoshlar bugungi niyatlarimizni ertaga ro'yobga chiqaradigan, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlaydigan har bir sohada o'z iqtidori va iste'dodini to'la-to'kis namoyon etadigan avlod sifatida shakllanishi zarur.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li" (1992), "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat" (1992), "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'i" (1993), "Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili" (1995), "Fan ravnaqisiz buyuk davlat

qurib bo'maydi" (1995), "Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q" (1997), "Yangicha tafakkurga keng yo'l" (1997), "Zamonaviy kadrlar – taraqqiyotimizning muhim omilidir" (1997), "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" (1997), "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (1998), "Yuksak ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining asosi" (1998), "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" (1998), "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" (2000), "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008) kabi asarlari, ma'ruza va nutqlarida yuksak taraqqiyotni ta'minlashda barkamol avlod tarbiyasiga alohida jiddiy e'tibor berganlar.

Yurtboshimiz "Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, hozirgi kun talablari asosida fikrlay oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy muammolarimizni hal etishning kaliti hisoblanadi"¹, - degan edi.

Jamiyatda layoqati, ishbilarmon, yetuk kadrlarga hamisha zarurat tug'ilgan. Insoniyat rivojining tarixi uning talablarini qondirish va mavjud muammolarni hal etishga qodir bo'lgan munosib kadrlarga ehtiyoj sezib kelganidan guvohlik beradi. Bu jamiyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida ham dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

Bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati kichik yoshdan boshlab shakllanadi. Yurtboshimiz zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? Bola 1-4 sinflarda qanday bilimlarga ega bo'lishi lozim? Ularning tarbiyasi qanday bo'lishi kerak? Shu masalalarga javob topishimiz zarurligini aytdi. Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerakligiga e'tiborni qaratdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning yo'llaridan biri kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishdan iborat. Sababi, bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik yoshli

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: O'zbekiston, 2002, 278 bet.

o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirmasdan turib, kelajakda oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishimiz mushkul.

O'quvchilarni shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Har bir kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi. Bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ijtimoiy-pedagogik masaladir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: ushbu dolzarb masala qator yillar davomida pedagog olimlar tomonidan xorijda va respublikamizda yetarlicha o'rganilgan. P.R.Atutov, V.P.Bespalko, I.V.Koratova, A.F.Kryuchkov kabi olimlar o'quvchilarda kasbiy bilim va ko'nikmaarni shakllantirish masalalarini o'zlarining ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida yoritishgan.

Respublikamizning pedagog olimlaridan R.X.Jo'rayev, N.Shodiyev, R.Mavlonova, E.Choriyevlarning o'quv qo'llanma, darslik, uslubiy tavsiya hamda ilmiy maqolalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish turli jihatlarini yoritib berishgan.

O'quvchilarning kasbga yo'naltirishning ba'zi tomonlari S.Bulatov, B.Qodirovlar tomonidan o'rganilgan.

Pedagogika fanlari nomzodi P.Xolmatov o'zining "Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida ushbu muammoning yechimlarini topishga harakat qilgan.

Ammo, amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish muammosini yetarlicha hal qilingan deb bo'lmaydi. Shu bois magistrlik dissertasiyamiz mavzusini "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish" tarzida tanladik.

Magistrlik dissertasiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: dissertasiya ishi O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosiy yo'nalishlarida belgilab berilgan "Kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish" bndlari mazmuni va "Pedagogika"

kafedrasining “Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyasining pedagogik-psixologik shart-sharoitlari” bosh mavzusi dasturi asosida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi: boshlang’ich sinf o’quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishni takomillashtirish va unga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- boshlang’ich sinf o’quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo ekanligini aniqlash;
- ilmiy-adabiy manbalarda kasb-hunarga yo’naltirish masalasini o’rganish;
- kichik yoshli o’quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlarini tahlil qilish;
- dars jarayonida kichik yoshli o’quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning mazmunini yoritish;
- boshlang’ich sinf o’quvchilarida darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning yo’llarini takomillashtirish;
- boshlang’ich sinf o’quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning ob’yekti: boshlang’ich sinf o’quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot metodlari: muammoni nazariy tahlil qilish, darsliklar va metodik ishlar tahlili; pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotning predmeti: boshlang’ich sinf o’quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning mazmuni, shakl va metodlari.

Magistrlik dissertasiyasining tarkibiy tuzilishi: dissertasiya kirish, uch bob, 6 fasl, adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMYI-NAZARIY ASOSLARI

1.1 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida

Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lishi ilmiy-ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Ana shu fikrga tayangan holda, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim-tarbiya masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nilish sifatida qaralib, butun mamlakat miqyosida, ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish tizimining samaradorlik darajasi, yutuq va kamchiliklar tahlil etildi. Zamonaviy taraqqiyot talablariga to'la javob beruvchi ta'lim tizimini takomillantirish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, unda quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan. Xususan, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiya asosida yetuk qilib tarbiyalash, yoshlarning ma'naviyatini milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash va shakllantirishda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish, yoshlarda Vatanga va xalqqa muhabbat, yurt farovonligi uchun kurashish, insonparvarlik, o'zlikni anglash, milliy g'urur, milliy iftixor, o'zga millat kishilari va ularning qadriyatlarini hurmat qilish kabi fazilatlarni tarbiyalash, yoshlarda vijdon erkinligi, bilimdonlik, axloqlilik, jismoniy yetuklik, mustaqil fikrni kamol toptirish kabi ta'lim-tarbiya masalalari ustuvor vazifa sifatida amalga oshirilmoqda.

Bu vazifalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan biri o'quvchilarning bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ijtimoiy ahamiyatga molik. Kasbni to'g'ri tanlash va uning sir-asrorlarini puxta egallagan, bu borada mashaqqatlarni sabr-matонат bilan yengib o'tgan shaxslargina hayotda o'z o'rnini

topadi. Oilaga, odamlarga, jamiyatga ko'proq manfaat yetkazadi. Amalga oshirgan ishlardan qoniqadi, o'zini erkin his etadi. Mehnatning natijasidan manfaatdor bo'ladi.

O'quvchilarda shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish pedagogika fani oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Sababi, farzandlarimizda kichik yoshidanoq muayyan kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantiradigan, kelajakda ular o'zlari sevgan, mehr qo'ygan kasb-hunar sohasining yetuk kadrlari bo'lib yetishadilar.

Psixologlarning fikrlariga ko'ra farzandlarimizning kasb to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirishni bog'cha yoshidan boshlash kerak ekan. Buning uchun bir necha usullardan foydalanish mumkin. Masalan, bolani qaysi rangni ishlatishiga va qaysi predmetni chizishig qarab bolaning qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. O'yin, musiqa ham bolada kasb to'g'risida ilk tasavvurlarni shakllantiradi. Ushbu usullar orqali bolalarni qiziqishini bilib olish mumkin. Bolalarning boshlang'ich sinfdan boshlab, ishlab chiqarish korxonalariga, turli xil kasb egalari bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchi-yoshlarda kasbga oid tushunchalarni shakllantirish, kasblar to'g'risida tushuncha berish, kasbga yo'naltirish muammosini xorijlik olimlardan Atutov P.R., Batishev S., Bepalko V.P., Korotova I.V., Kryuchkov A.F. va boshqalar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berishgan.

Respublikamizning pedagog olimlaridan Jo'rayev R., Mavlonova R., Shodiyev N., Nishonaliyev U., Tolipov O'., Xo'jaboyev A., Choriyev E., Razzaqov D., Muranov B. va boshqalar o'rganishgan.

O'quvchilarning mehnat va kasb ta'limi hamda kasbga yo'naltirishning o'ziga xos tomonlari pedagog va psixolog olimlar Bulatov S., Qodirov B. va tomonidan yoritilgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor E.Choriyevning ilmiy-tadqiqot ishlarida mehnat tarbiyasining shaxs fazilatlarini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatib bergan.

Professor R.Jo'rayev o'zining "Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va shaxsning kasbiy o'zligini anglash muammolari" mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyada qilgan ma'ruzasida "Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi, eng avvalo, individga o'z qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishning vosita va usullarini to'g'ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelishi uchun imkoniyat va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat", - degan muhim vazifalar haqida so'z yuritadi.

Professor N.Shodiyev mehnat ta'lim va kasb ta'limining muhim sohalaridan hisoblangan kasb tanlash, kasblarga havas uyg'otish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarni kasb tanlash ishlar bo'yicha darsdan, maktabdan tashqari ishlarni olib borish, kasbiy axborotlar uyushtirish, o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashni pedagogik shart-sharoitlarini batafsil yoritgan. Pedagog olim "Qishloq xo'jalik ishi kasblari", "Sanoat ishchi kasblari", "Sinfidan va maktabdan tashqari ishlarda bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish" kabi o'quv uslubiy qo'llanmalarni tayyorlagan.

Pedagog olim R.Mavlonova o'zining bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarida boshlang'ich sinflardagi o'quv-tarbiyaviy jarayonni, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish mazmunini takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan. Olib borilgan ishlar natijasida u I-IV sinflar uchun darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratdi.

K.Davlatovning "Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda tanlash nazariyasi va merosidan amaliy mashzulotlar" nomli o'quv qo'llanmasida mustaqil va laboratoriya ishlariga doir materiallarni bayon qilgan hamda o'quvchilarning mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish bo'yicha saviyasini oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish yo'llarini asoslab bergan.

Pedagog olimlar R.Jo'rayev, O'.Tolipov, Sh.Sharipovlar uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy asoslarini yoritib berishga harakat qilgan. Bu olimlar mustaqillik yillarida shas tarbiyasida kasb-hunarga yo'naltirishning mazmuni va mohiyatini ko'rsatib bergan.

Shuningdek, mustaqillik yillarida D.Zohidov, R.Sarsenbayeva, O.Jamaluddinova kabi pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'quv-uslubiy ishlanmalarida bevosita o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning o'ziga xos jihatlarini yoritib berishgan.

Pedagogika fanlari nomzodi Pardaboy Xolmatov ilmiy-tadqiqot ishlarida darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasini asoslab bergan.

Pedagog olim B.Muranov o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida jumladan, "Mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limidan testlar tuzish va foydalanish" metodik qo'llanmasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida va maxsus ta'lim muassasalarida o'tiladigan mehnat ta'limi yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishlari darajalarini aniqlash uchun pedagogik nazorat tizimida testlar tuzish va foydalanish yo'llari shart-sharoitlarini ko'rsatib bergan.

Professor S.Bulatov o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida o'zbek amaliy san'ati turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, gilamchilik hamda boshqa hunarlarning tarixini, uning rivojlanish yo'llarini bayon qilgan.

Pedagogika fanlari doktori Baxtiyor Rahimov kadrlar tayyorlash tizimida kasbiy-madaniy munosabatlar masalasiga to'xtalib, "... boshlang'ich sinflardan muayyan kasbga qat'iy munosabat bildirish, asosli ravishda kasb tanlash ham erta hisoblanadi. Bu tadqiqotlar natijasida ham o'z ifodasini topgan. Ammo "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da bolaning erkin fikrlashi, uning tafakkurini tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shu ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonida bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatiga xos zamonaviy kasblar to'g'risida bolaga kerakli ma'lumotlarni, tushunchalarni shakllantirishlari davr talabi hisoblanishini asoslab bergan".²

Pedagog olim Otamurod Abduquddusov o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida, bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarida kasbiy mustaqillikni shakllantirish masalasiga to'xtalib, so'nggi yillarda maktablarimiz amaliyotida pedagogika oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mehnat va kasb-hunar ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan amaliy talablar orasida tafovutlar saqlanishi va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib bergan.³

² Raximov B. Xalq ta'limi. 2000 y.

³ Abduquddusov O. Xalq ta'limi. 1998 y., 2-son, 134-135 betlar.

Tadqiqotchi Sh.Saparov o'zining ilmiy maqolalarida o'quvchilarning shaxsiy kasbiy qiyofasini shakllantirish masalalariga e'tiborini qaratgan.

Tadqiqotchi Zarifa Mamatqulova o'zining ilmiy izlanishlarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda tafakkurning o'rniga alohida to'xtalgan. U kasbiy tafakkur har bir shaxsning kasb faoliyatini to'g'ri yo'naltiruvchi muhim omil ekanligiga e'tibor qaratgan. Kasb-hunar alohida faoliyat turi bo'lib, kimdir ko'z yoki qo'l, kimdir oyoq yoki miya orqali oshiradiki, raqqosa qo'l, oyoq, ko'z harakati qanchalik uning tafakkur qudratini rivojlantirishiga, ong takomiliga bog'liq bo'lsa, boshqa kasb egalari uchun bu jihatlar mustasno ekanligini ta'kidlaydi.⁴

Pedagogika fanlari nomzodi Xafizova Nilufar Hamidullayevna o'zining "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi" mavzusidagi nomzodlik dissertasiyasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning tarixiy asoslari va boshlang'ich sinf o'quv predmetlarining kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning o'rni va mavjud holatini o'rgangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish o'z-o'zidan mehnatga bo'lgan muhabbatni shakllanish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Sababi, bu jarayonda o'quvchilar faqat kasb-hunar nomlari bilan tanishtirilib qolmay, o'rganilayotgan biror-bir kasbning yoki hunarning mazmuni, vazifasi, o'ziga xos tomonlari, shu kasb egalarining muvaffaqiyatlaridan xabardor qilishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida **kasb** – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'ulot turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi, - deb izoh bergan (4-tom. 491-bet).

O'zbek tilining izohli lug'atida **hunar** – muayyan ko'nikma, mahorat talab qiladigan, tirinchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg'ulot, kasb. Biror ishdagi mahorat, san'at, mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat, - deb izohlanadi.

⁴ Xalq ta'limi. 2006 y., 1-son, 55-56 betlar.

Kasb-hunarga oid tushunchalarni bolalarda yoshlik chog'laridan boshlab shakllantirib borish hamma zamonlarda ham dolzarb hisoblangan. bu holat mutafakkir va olimlar tomonidan yetarlicha talqin qilingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda xalq an'analari va xalq urf-odatlaridan foydalanishni o'rgangan tadqiqotchi A.Rahmatullayev ilmiy-tadqiqot ishlarida mehnatga mustaqil va ijodiy yondashish xislatlari rivojlanishi bilan birga bolalarda hunar o'rganishga qiziqishni o'stirib borish muhim deb hisoblaydi.

Pedagogika fanlari nomzodi, dosent H.Sanaqulov boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga bo'lgan ilk qiziqishlarini, mehnat an'analari asosida o'rganib, ilk kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish bevosita mehnat o'quv predmeti o'qitish bilan bir paytda olib borilishini ta'kidlaydi.

E.Xolmirzayev boshlang'ich sinf o'quvchilarida fanlararo bog'lanish orqali mehnat darslarini o'tilish jarayonida milliy kasb-hunarlarga qiziqish uyg'otish maqsadidagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshlik xususiyatlariga qarab, milliy kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini yoritib bergan.

R.Djurayev va Yu.Koralyskayanning izlanishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb va mehnat faoliyatiga tayyorlashning maqsadi va mohiyati ochib berilgan, bu muammoni amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quv predmetlari mazmunidan samarali foydalanishning yo'llari ta'kidlangan.

Yuqorida ta'kidlangan olimlarning fanlardan kelib chiqib, tadqiqotimizning eksperiment natijalariga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish davr talablari asosida takomillashtirishi lozimligiga ishonch hosil qildik.

Kasb tanlash – mas'uliyatli ish. O'z hayot yo'lini belgilab olish – bu oson ish emas. Bu muayyan vaqtni, maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shu bois, dastlab o'quvchilarning kasb-hunarga oid layoqatini o'rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilim, malaka va ko'nikmalarini o'rganish kerak.

O'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, kasbga yo'naltirish ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazish uchun maktabda – kasbga yo'llash kengashining faoliyatini davr talablari darajasiga ko'tarish lozim. Bu borada quyidagi muammolarni bartaraf etish kerak:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarlariga oid tushunchalarni shakllantirish ishlariga mas'uliyatini oshirish;

- kichik yoshdagi o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishga oid dars majmualari tayyorlash;

- darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zaruriy uslubiy qo'llanmalar yaratish;

- maktab bilan ota-onalar kengashi va mahallaning hamkorligini kuchaytirish;

- otalik tashkilotlarning amaliy yordamini kuchaytirish.

1.2 Ilmiy-adabiy manbalarda kasb-hunarga yo'naltirish masalasi

Ma'lumki, har qanday jamiyat yoki davlatning istiqboli unda yashab ijod qilgan kishilarning umumiy bilim saviyasi hamda fazilatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ilmga tashnaligi, tirishqoqlik, tejamkorlik, rostgo'ylik, chidamlilik, sabrlilik, ochiq ko'ngillilik, mutavoziylik kabi fazilatlarning birini o'zida mujassam etgan har qanday insonning biror kasb-hunarga oshno bo'lishi shubhasiz. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, aksariyat allomalarimiz tomonidan ushbu fazilatlarni keng ommada tarbiyalash va biror-bir aniq kasb-hunarga yo'naltirish borasida ko'plab ilmiy-ijodiy ishlar amalga oshirilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari jamiyat rivojlangani sari olimlar tomonidan to'g'ri anglab boriladi. Ushbu rivojlanish kasb-hunarga yo'naltirishda yangi bilimlar va ma'lumotlar talab qila boshladi. Xususan, XII asrda yashab ijod qilgan ulug' mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib tomonidan ham bu borada ibratli ishlar olib borilgan. Alloma tomonidan yozilgan "Qutadg'u bilig" asari o'sha davr olimu ulamolari doirasida juda katta shuhrat topgan.

Kitobning bosh mavzusi inson taqdiri hayoti bo'lib, unda kishilarni ilmga va kasb-hunar egasi bo'lishga da'vat etiladi. O'sha davrga xos bo'lgan kasb-hunarlar: dehqonchilik, chorvachilik va savdogarchilikka alohida to'xtalish bilan birga, bu kasb-hunarlar rivoji uchun beklar alohida e'tibor qaratishlari qayta-qayta uqtirib o'tilgan. Jumladan, dehqonchilik haqida quyidagi fikrlar keltirilgan:

*Tag'in bir toifa bo'ladi dehqon,
Kerakli kishilar bo'lar har qachon.
Bular bilan yaqin bo'lgin hamisha,
To tomoq tashvishi bilmasdan yana.
Qimirlagan jonga naf bergan ishlar,
Nafas olgan butun tirik jonivor,
Dehqondan bo'lmog'i kerak minnatdor.*

Bu misralarda keltirilgan so'zlardan maqsad dehqonlar ishini osonlashtirish uchun ularga o'git berishgina bo'lib qolmay, balki bu kasb-hunarning ijobiy

qirralarini ko'rsatib berish va shu orqali o'quvchini unga oshno qilish, ya'ni ushbu kasbga yo'naltirish ham ko'zda tutiladi.

Yusuf Xos Hojibning ilmiy-pedagogik qarashlari o'sha davrning bir qator davlatlarida kasb-hunarga bo'lgan ijobiy qarashlarning shakllanishida o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

Kishilik jamiyati rivojlana borgan sari insonlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlari ham o'zgarib boshladi. Bu holat temuriylar davrida yaqqol ko'zga tashlanib turishini o'sha davrdan qolgan ilmiy-adabiy manbalar, tarixiy yodgorliklar va ashyolar ochiq-oydin ko'rsatadi. Darhaqiqat, bu o'zgarishlarning vujudga kelishida kishilarning ilm-hunarga bo'lgan qiziqishlari va intilishlari alohida o'rin tutadi.

Shubhasiz, ushbu intilishlarni paydo qiluvchi omil sifatida mutafakkirlarning asarlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, o'sha davrlarda yashab, kamol topgan mutafakkir shoir Alisher Navoiy ham o'z asarlarida kishilarni ilm va halol kasb bilan shug'ullanishga chaqiradi. U o'zining "Xamsa" asaridagi "Hayrat ul-abror" dostonida "Hotami toy" haqida ibratli hikoyat keltiradi. Bu hikoyat orqali o'zgalardan ta'ma qilish bilan kun o'tkazuvchi kishilarni qoralab, dashtu biyobonda o'tin terib bo'lsada, halol mehnat bilan, o'zgalar mehnatimiz o'z ehtiyojlariga yarasha mablug' topib kun kechirish ta'magirlik va o'zgalarga qaram bo'lishdan afzal ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

Hikoyatda keltirilishicha, bir kuni Hotami toyi elni chaqirib dasturxon yozadi. Shunda mehmonlardan biri uning saxiyligini tilga olib, o'zi kabi fazilatli kishini uchratgan yoki yo'qligini so'rab qoladi. Hotami toyi ziyofatlarning birida dashtga chiqqani va unda bir o'tinchini ko'rib, Hotami toyi elga dasturxon yozganini va unga borib taomlanish bu ishlardan oson ekanligini tushuntiradi. Taklifga javoban, o'tinchi Hotami toyining minnatli zayofatidan, o'zimning mehnat qilib topgan nonim azizroq deb javob beribdi. Bundan qattiq ta'sirlangan Hotami toyi o'tinchini o'zidan ham ko'ra fazilatliroq deb tan oladi.

Alisher Navoiy o'tinchining javobi vositasida haolo kasb va mehnat bilan shug'ullanish har qanday hotamlikdan ortiqroq fazilat ekanligini ta'kidlab, shu

orqali o'quvchini halol kasb-hunar egasi bo'lishlik g'oyasiga ergashtiradi. Alloma o'z asarlarida kishilarni kasb-hunarga chorlashda davom etib, u endi ularni faqat kasb-hunar egasi bo'lishgina emas, balki shu kasb-hunar vositasida kishilarga yaxshilik qilishga undaydi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni bevosita shu ishlar davomi edi. U farhod obraziga ta'rif berar ekan, uni o'z kasbini yuksak darajada egallagan va insoniylik borasida ham olijanob qiyofada tasvirlaydi:

Chu kayfiyatni ma'lum etti Farhod,

Alar holiga bo'ldi ko'ngli noshod.

Dedi: - Bu nega mazlumu sitam kash,

Falak bedodin bo'lg'on alamkash.

Ki vayronlig'larida yuz xalaldir,

Agar qilsam madad voqye' mahaldir.

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tufroqqami ketgumdir oxir.

Ulug' mutafakkir tomonidan bitilgan ushbu baytlar har xil dunyoqarashda bo'lgan kimsalarga ham birdek ta'sir ko'rsata oladigan ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Darhaqiqat, insonning biror-bir kasb-hunarni egallashiga bo'lgan intilishi turlicha maqsadlar bilan bog'liq. Jumladan, ma'naviy va moddiy ehtiyojlarni qondirish, o'zgalarga g'amxo'rlik qilish.

Mazkur asarlar bilan tanishish jarayonida o'quvchi ushbu maqsadlar mohiyatiga tushunib yetadi. Ular teran anglagan vaqtda o'quvchida biror kasb-hunarni egallash fikri paydo bo'la boshlaydi. Shu tufayli ham allomaning ijodiy mahsulidan foydalanish ta'lim jarayonida tarbiyaning samaradorlik darajasini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda shaxs tarbiyasi alohida o'rin tutganligi bois, tadqiqotchilar mazkur masala bilan muntazam shug'ullanib keldilar. Barkamol avlodni shakllantirishda uning ma'naviyati muhim ahamiyatga molik. Ma'naviyatli inson deganda, tadqiqotchi M.Pazilova uning mehnatsevarligini ham alohida e'tirof etadi. Inson o'z mehnati orqali xalqiga

hurmat qilishi lozimligini uqtiradi. Insonning insonparvarlik fazilati o'zini o'z xalqiga farzandi sifatida his etish, uni deb mehnat qilishi, uning fidoyisi bo'lishi bilan belgilanadi, deya insonning ma'naviyat darajasini ko'rsatib beradi.

Kasb-hunarga yo'naltirish masalalarini hal etishda o'quvchilarga beriladigan iqtisodiy tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maktab o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda aqliy tarbiya orqali o'quvchilarda tabiatan berilgan aqliy sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat ekanligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, haqiqatan ham, inson kelajagi haqida qayg'urish va uning jamiyatning faol a'zosiga aylanishida oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlangan maqsadga yetishi qobiliyatini shakllantirish mumkinligi B.Sobirovning tadqiqot ishida o'z tavsifini topgan.

O'quvchilarda kasbiy fazilatlarni shakllantirishning yana bir usuli D.Himmatilayevaning "O'quv tarbiya jarayonida o'quvchilarning kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish" mavzusidagi tadqiqot ishida ko'rsatib o'tilgan. Unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari kasbiy madaniyatini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari mavzusidagi tadqiqot ishida o'quvchilar aqliy mehnat faoliyatini tashkil etishda qissalar, hikoyalar, topishmoqlar va buyuk mutafakkirlarning qarashlari muhim ahamiyatga egaligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Eng ulug' zotlar sanalmish payg'ambarlar ham o'z rizqlarini halol peshona terlari bilan topganlari, ya'ni kasb-hunar bilan shug'ullanishlari barchamiz uchun buyuk ibratdir. Ular rizq Allohdan ekanini bilgan hollarida ham hunarsiz o'tirmadilar. Tarixdan ma'lumki, odam (alayhissalom) dehqonchilik, Nuh (alayhissalom) duradgorlik, Dovud (alayhissalom) temirchilik, Idris (alayhissalom) esa hattotlik bilan shug'ullanganlar.

Ma'lumki, har qanday kasbni puxta egallash, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun ana shu kasbga taalliqli ilmni mukammal o'zlashtirmoq kerak. Kasbga muhabbati bor inson o'z mehnatidan charchamaydi, balki rohatlanadi. Kasbi tufayli atrofdagilarga yordami tegsa, inson o'zini baxtli hisoblaydi. Shuning

barobarida Alloh taolo tomonidan ulug' ajru hasonotlar berilishiga munosib ekanini his qilish bilan ruhiyati yengil tortadi, imoni quvvat oladi.

Imom Tabaroniy rivoyat qilgan hadisda Rasululloh (sallalohu alayhi va sallam): “Gunohlar ichida shundaylari borki, unga faqat halol rizq topish maqsadida qilingan tashvishgina kafforat bo'ladi”, - deb marhamat qilgan.

Darhaqiqat, inson halol mehnati bilan ulug' savoblar vaqtda qilingan darajalarga erishish mumkin. Rasululloh (sallalohu alayhi va sallam) bir hadisda: “Albatt, Alloh taolo hunarmand mo'minni sevadi”, - deganlar.

Rasululloh (sallalohu alayhi va sallam) hadislarining birida: “Hyech kim qo'l mehnati bilan topgan taomidan ko'ra yaxshiroq narsa yegan emas. Albatta, Alloh taoloning payg'ambari Dovud (alayhissalom) ham qo'l mehnati orqali kun ko'rganlar” – deb marhamat qilganlar.

Xalqimizda farzandlarni yoshligidan biror hunarga o'rgatish maqsadida ustozga shogird berishdek juda yaxshi an'ana bor. Istiqlol sharofati bilan bugun ona zaminimizda sertarovat, jahon andozalariga to'la mos keladigan yuzlab kasb-hunar kollejlari bunyod etildi. O'sib kelayotgan yosh avlod bugunning eng ilg'or texnika va texnologiyalarini mukammal egallashini ta'minlash maqsadida ushbu ta'lim muassasalari yuqori sifatli anjomlar bilan jihozlanib, talabalarga taqdim etildi. Bu yoshlarga bo'lgan e'tibor va ishonch timsolidir.

Mana shunday yuksak e'tiborning qadriga yetib, o'z vazifalarini bajarib, men albatta kelajakda elimga, yurtimga xizmat qilaman, deb harakat qilish har bir o'quvchining asosiy maqsdi bo'lmog'i lozim.

Kasb-hunar egallash va shu asosda hayot kechirish haqida Islom olamida birinchi bo'lib Imomi A'zamning shogirdlari Imom Muhammad (rahimahumalloh) “Katob al iktisob” (Kasb-hunar kitobi) asarini yozib, bu boradagi dinimiz ta'limoti asoslarini mukammal ravishda bayon qilib berdi.

Atoqli shoir Nizomiy Ganjaviy: “O'qib-o'rganilgan har bitta hunar hunarmandga bir kun foyda keltirar”, - deb yozganida ming bora haq edi. Yana bir hikmatlaridan birida: “Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa,

dunyoda hech bir xavf-xatari bo'lmaydi. Shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i kerak", deyiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o'tgan taniqli olim va ma'rifatparvar Aliy Nazimoning Markaziy Osiyoda katta shuhrat qozongan va maktab-madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan "Ta'limi banot" ("Qizlar tarbiyasi") kitobida quyidagi jummalarni o'qiydiz: "Yosh qizlarga ta'lim-tarbiya berishda ular uchun nihoyatda kerakli, o'rganmaslikning aslo iloji bo'lmagan fan hunarlari fanidir. Eng yuqori bilim va ma'lumot ham bu fanning o'rnini bosa olmagan bo's yosh xonim-qizlar bu fanni o'rganishga tirishishlari lozim. Qo'l ishlariga usta bo'lgan ayollar qo'llarining mohirligi, chapdastligi sababli adabu iffat ichida tirikchiligini qila oladi. Boy oilalarning xonimlari qo'l hunari orqasida xush va huzurli vaqt o'tkazishadi hamda muhtojlarga yordam ko'rsatib, odamiylikda bo'lurlar. Igna bir to'g'ri va chin do'st bo'lib, ko'p vaqtda yurt xalqining yordamchisi va eng qimmatli qurollaridan biridir. U yolg'iz vaqtlarda yupanch bo'lib, g'am-qayg'uni daf qiladi, yaxshi ishlarni ro'yobga chiqaradi, kerak bo'lganda faqirlik va muhtojlikka qarshi kurashadi. Qo'l hunarlarini kichkina yoshdan boshlab tartib ila o'rgatish lozim".

Zardo'shtiylarning ulug' asari hisoblangan, eramizdan avvalgi 5-4 asarlarda yaratilgan "Avesto"da bolalar yoshligidan daraxt ko'chati o'tqazishi, uy-ro'zg'or qurollari yasashini, yerga ishlov berishi kabi mehnat mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida ko'plab satrlar keltirilgan. "Avesto"da ta'riflangan va targ'ib etilgan eng ulug' kasb dehqonchilikdir. Zeroki, bu kasb sohiblari zardo'shtiylarni moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Bu hayot taraqqiyotining asosiy omilidir. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyat moddiy ne'matlarini yaratuvchilari sifatida ta'riflangan.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida insonlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga hamda insoniy shaxsining ijobiy va bunyodkorlik kuchini va uning kamolotini, qadr-qimmatini ulug'lashga chorlaydi. Allomaning fikricha: "... kimki eng go'zal va foydali bo'lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o'zining istagiga va boshqa birovning istagiga muvofiq bo'lsa

yoki uni boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan xayrli va foydalidir”.

Sharqning ulug’ matematigi Al-Xorazmiy o’zining “O’git”larida “Mehnat bir sel, agar bu sel to’xtab qolsa, u singib ketadi”, - deb fikr yuritadi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy kishilarning baxt-saodati va kamoloti, uning halol mehnat qilish, kasb-hunar o’rganishida deb biladi. Beruniyning “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli asarlarida o’zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma’lumotlar berilgan. Buyuk alloma o’z asarlarida unumli mehnatning ahamiyatini alohida ta’kidlab, “... barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati, uning avlod-ajdodi kim bo’lganligi bilan emas, balki, uning halol mehnati bilan ulug’lanadi. Buning uchun mehnat zarur, faqat aql-idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi”, - deydi. Mutafakkirning quyidagi hikmatlari tahsinga loyiqdir: “Har bir insonning qadr-qimmati o’z ishini qoyil qilib bajarishda”, “Bugunning chorasini ko’rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir”. Abu Rayxon Beruniy insonning halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aql-zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o’z kasbini ardoqlashdek fazilatlarini nihoyatda qadrlaydi. Abu Rayxon Beruniy yoshlarni eng kichik yoshdan boshlab qobiliyatga qrab mehnat qilishga o’rgata borish, kattalar mehnatini e’zozlay oladigan qilib tarbiya berish, bolani bilim va kasbga o’rgatish oilaning diqqat markazida bo’lishini ijodiy baholagan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta’lim bilan hamda hunar o’rgatish bilan bog’lab davom ettirishni alohida ta’kidlagan.

Ulug’ mutafakkir Mahmud Qoshg’ariy o’zining “Devoni lug’atit turk” (Turkiy so’zlar to’plami) nomli asarida “Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so’zlarini tngla, ilmlarni, hunarlarni o’rganib amalga oshir”, - deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnt qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi.

Amir Temur mamlakatda hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik va savdoni rivojlantirishga katta e’tibor bergan. U insonlarning mehnat bilan band

bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. U o'z davlatida to'qimachilik, yog'och, tosh o'ymakorligi, gilam to'qish, sopol, metall idishlar tayyorlashni va hokazoni yo'lga qo'yganligi sababli ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymagan.

XV asrda yashagan yetuk alloma Husayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvatnomai Sultoniyy" nomli asarining 14-fasli "Kasb-kor va savdo, tijorat dobi haqida", deb nomlanib unda quyidagi so'zlar yozilgan: "... Agar bracha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta deb so'rasalar, sakkizta deb aytgan:

- birinchidan, o'z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag'dan pok saqlasin;
- ikkinchidan, rizq-ro'zi zarurati uchungani kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin;
- uchinchidan, mansabni obro' olish, yaxshi nom chiqarishning sababi deb bilsin;
- to'rtinchidan, moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomala qilmasin;
- beshinchidan, o'z hunariga bee'tiborlik, xto nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymasini, har xil iflosliklar, bulg'anishlardan saqlanish;
- oltinchidan, insof chizig'idan tashqari chiqmasin, mol-matoni tinmaydigan odamlar bilan muomala qilmasin;
- yettinchidan, tarozi bo'lsa, toshdan urib qolmasin va ortiq ham bermasin;
- sakkizinchidan, gazlama o'lchab sotuvchilardan bo'lsa, o'ziga ko'p olib qolib boshqalarga kam bermasin, chunki barakat to'g'rilikka va jamiyatning inson yuzasidan baham kun kechirishdadir".

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinadiki, alloma hunarmand kishilar halol, insofli, sofdil bo'lishlari barobarida boshqalarga o'rnak bo'lishlari kerakligini ham ta'kidlaydi.

1.3 Kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning hozirgi holati va imkoniyatlari

Mustaqillik yillarida yuarkamol avlodni shakllantirish masalasi inson kapitalini yaratish konsepsiyasining negizi hisoblanib, hukumatimiz tomonidan bu borada muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlikning profilaktikasi to'g'risida"gi, "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqalishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi kabi qator qonunlar qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan har bir yilning ma'lum bir nom bilan nomlanishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat dasturlarida olga surilgan barkamol shaxsni shakllantirish g'oyasi bu borada amalsha oshirilayotgan amaliy ishlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, iqtidorli, intellektual salohiyatli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, bolalarga ommaviy tarzda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, imkoniyati cheklangan shaxslar, ijtimoiy huquqiy xatar guruh bolalar, yetim bolalar va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishning zamonaviy mexanizmini yaratish, yoshlarning sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar o'zbekiston kelajagi hisoblangan komil insonlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonda jamiyatning barcha institutlaridan faollik talab etilmoqda.

Barkamol avlodni shakllantirishda kasb-hunarga yo'naltirish masalasi ham muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid

tushunchalarni shakllantirish o'z-o'zidan mehnatga bo'lgan munosabatning shakllanish jarayoni bilan bog'liqlikda malga oshiriladi. Chunki bu jarayonning maqsadi faqatgina kasb-hunar nomlari bilan tanishtirishgina bo'lib qolmay, o'rganilayotgan biror-bir kasb yoki hunarning mazmuni, vazifasi, o'ziga xos tomonlari, shuningdek, shu kasb egalarining muvaffaqiyatlari bilan ham xabardor qilib borishni o'z ichiga oladi.

Forobiyning asarlarida hunar va san'atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko'ra bir-biridan afzal ko'rinishi ta'kidlanadi. Masalan, bo'z to'qish, shoyi to'qish, attorlik, hovli supurish, raqs san'ati, fiqh liim, tabiblik yoki so'z san'ati bir-biridan qanchalik afzal bo'lsa,,, baxtga erishuv darajalari ham shunga o'xshashdir deb hisoblaydi. Shuningdek, nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma va ulug' kasb (kasb-hunar) fazilati, odat, malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalari ekanligi ta'kidlanadi.

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida kasb-hunarga oid bilimlarga ega bo'lish zarurati yuzasidan so'z borib, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hyech kishiga naf yetkurmas. Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa, ammo hunari bo'lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur degan fikrlar keltiriladi.

Kasb-hunarga oid tushunchalarni bolalarda yoshlik chog'laridan boshlab shakllantirib borish hamma zamonlarda ham dolzarb hisoblanib, jamiyat rivojlangani sari olimlar tomonidan yanada chuqurroq o'rganilib, to'g'ri anglab borilavergan. Xususan, ulug' mutafakkir shoir Yusuf Xos Hojib tomonidan bu borada ibratli ishlar olib borilgan. Allomaning "Qutadg'u bilig" asarida "Bir yigitga qirq hunar oz" mavzusida hunarli kishilar ulug'lanadi. Xususan, ushbu asarda chorvador, savdogar, dehqon, shoir, olimlar, yulduzchilar va ularning mehnatlari qadrlangan.

Hozirgi kunda yoshlarni kasb va kasbga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan barkamol avlodni kasblar bo'yicha ongli ravishda tanlashga tayyorlash.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo'llash yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni barcha ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

Kasb o'zi nima?

Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir.

Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.

Kasb – tiriklik va tirikchilik manbai.

Kasb – tirik organizmdir.

Kasb tanlashga yo'llash (proforentasiya) – termini: yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash, hayotda to'g'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi – o'quvchi-yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

Kasb so'zining ma'nosi insonlarning hunari, faoliyat turi va hayot kechirishlari uchun manba xizmatini o'taydigan mashg'ulotni bildiradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati – yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashda uni har tomonlama va barkamol rivojlantirishning shart-sharoitidir.

Kasbga yo'naltirish – o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga yetishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va xatti-harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.

Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari deganda, kasb – kasbga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar, pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sosiologlar va g'oyat xilma-xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta.

Kasb va kasbga yo'naltirish ishlari quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Kasbiy axborot yoshlarni – zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat yoshlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlash pedagogik-psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik-fiziologik xususiyatlariga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish.

Kasbiy saralash insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablariga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni quyidagilar:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bosqich.
2. O'rta yoshdagi bosqich.
3. O'rta yoshdagi bosqich.
4. Katta yoshdagi bosqich.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilishga oid va o'yin ko'rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiiq qilish orqali, mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda davlat ta'lim standartlari talabiga javob beradigan dars va darsliklarning o'rnini aniqlashga harakat qildik.

2-sinfda o'quv predmetlari

№	O'quv predmeti nomi	Haftalik o'quv soati	Kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlari
1.	O'qish	4	Bevosita
2.	Ona tili	4	Qisman
3.	Matematika	5	-
4.	Tasviriy san'at	1	Qisman
5.	Musiq	1	-
6.	Jismoniy tarbiya	2	-
7.	Odobnoma	1	Bevosita
8.	Mehnat	1	Bevosita
9.	Atrofimizdagi olam	1	Qisman
10.	Rus tili	2	-

Ushbu o'quv predmetlaridan 3 tasida bevosita, 3 tasida qisman bo'lsada kasb-hunarga oid tushunchalarni o'quvchilarga o'rgatish mumkin.

2-sinf "O'qish" kitobi T.G'afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimovalar tomonidan yozilgan bo'lib, 2012 yil "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan nashr etilgan. Darslik 11 ta bo'limdan iborat bo'lib, shulardan "Ona yurtim – oltin beshigim" bo'limida 1 ta, ya'ni "Tandir" rivoyatida kasb-hunarni e'zozlash, mehnat qilish, uning foydasi, mehnat kishini ulug'lashi xususida gap ketadi va bu orqali o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish imkoniyati mavjud.

"Mehnat baxt keltirar" bo'limi boshidayoq kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'limda quyidagi mavzular bunga xizmat qiladi:

“Odam bo’laman”;
“Keksa kulol va shogird”;
“Hunar – bebaho boylik”;
“Non aziz”;
“Uch o’g’il”.

Shuningdek bo’lim yuzasidan takrorlash bandida aks ettirilgan rasmlar va savollar har bir mavzu nihoyasidagi hikmatli so’z va maqollar ham o’quvchilarda kasb-hunarga doir tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

2-sinf “Odobnoma” darsligi O.Hasanboyeva, M.Inoyatova, A.Ne’matovalar tomonidan 2012 yilda nashr qilingan.

Darslikda “Kattalar mehnatini qadrlang”, “Dilbar” hikoyasi, “O’z-o’zingizga xizmat qilishni o’rganing”, “Vaqti kelsa” she’ri bevosita o’quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantiradi. “Mehnat” darsida o’quvchilar hunarga o’rganishadi. Yasash, tikish, bezatish ishlari bilan shug’ullanadi. Bu dars orqali o’quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish imkoniyati yetarli darajada. Yillik o’quv reja bo’yicha o’quvchilar quyidagi mavzular bilan tanishadilar:

1. Mehnat fani ish qurollari.
2. Rangli qog’oz bilan ishlash.
3. Atirgul yasash.
4. Gerbariy tayyorlash.
5. Bargdan turli hayvonlar yasash.
6. Urug’ uchun xalta tikish.
7. Urug’ dan mozaika yasash.
8. Oddiy chok, zanjir tikish.
9. Tuxum po’chog’idan o’yinchoq yasash.
10. Plastilin bilan ishlash.
11. Aryaa bezaklari yasash.
12. Igna uchun yostiq tikish.
13. Oddiy chok turlari.

14. Urug' uchun xalta yasash.
15. Rangli qog'ozdan pirpirak yasash.
16. Tashlandiq materialdan o'qinchoq yasash.
17. Svetafor maketini qurish.

Bu mavzularning barchasi o'quvchida kasb-hunarga mehrni kuchaytiradi. Biror hunarni o'rganishga undaydi.

2-sinf "Atrofimizdagi olam" darsligi P.G'ulomova, Sh.Mirzaxmatovalar tomonidan yozilgan va 2012 yilda nashr qilingan. Bu dars mobaynida ham o'quvchilar kasb-hunarga oid tushunchalarni egallashlari mumkin. Darslikdagi "Ijtimoiy foydali mehnat", "Bahorda kishilarning mehnati" va amaliy mashg'ulotlarning to'liq bajarib borilishi o'quvchilarda mehnat qilishning samarasi haqidagi tushunchalarni boyitishga xizmat qiladi.

"Ona tili" darsligining ba'zi bir matnlarida kishini mehnatga undash kabi fikrlar mavjud.

O'quvchilar "Tasviriy san'at" darsi orqali rassom, dizayner, haykaltaro kabi kasblarga qiziqishi ortadi va o'zlarining qiziqqan kasblarini "Men kim bo'lmoqchiman" savoli ostida qozog'ga tushiradilar.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, 2-sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish, ularga hurmat uyg'otish, mehnat qilishga o'rgatish, kattalarning mehnatini qdr lash kabilarni tushuntirish imkoniyati yetarli darajada. Faqatgina o'quvchilar har bir fanni mehr bilan yangi innovasion texnologiyalar asosida o'tishi va har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanishi, qolaversa o'zlashtirish ko'rsatkichiga e'tiborli bo'lish talab etiladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI, SHAKL VA METODLARI

2.1 Dars jarayonida kichik yoshli o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish

Dunyo pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma'ruza-seminar, sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari va boshqalar. Ulardan ta'lim oluvchilarni qamrab olish, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayonlariga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi asosiy turi foydalanib kelinmoqda: individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma'ruza-seminarli.

Qadimgi zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli individual ta'lim hisoblanadi. Ushbu ta'lim turi bir qator afzalliklarga ega. Bu usul hozirgi kunda repititorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunlik tomonlari shundaki o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individallashtirish niq bir masalani hal etishda, uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Bu ta'limning kamchiliklari vaqtning tejimli emasligi, ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi, jamoada ishlash tajribasini shakllantirmasligidan iborat. Mamlakatimiz tarixida "Avesto" davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan birga olib borilgan.

XI asrda Ibn Sino o'zining "Tadbiri manzil" asarida ta'lim oluvchilarga jamoaviy o'qitish haqida o'z fikrini bayon qilgan.

Burhoniddin Zarnuji (12 asr) "Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar" nomli asarida dars olib borish bo'yicha tavsiyalar bergan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etish kerakligi yozilgan.

XV asrda jamoaviy o'qitishni tashkil etish g'oyasini Mirzo Ulug'bek davom ettiradi. O'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va jamoaviy sinfdagi tizimga yaqin bo'lgan shaklni joriy qiladi.

XV-XVI asr davomida Yevropada ta'lim berishning ommaviy shakli yuzaga keldi. Ularning biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning guruhli (jamoaviy) turi deb ataladi. Bu tizimning XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Buyuk didaktika" asarida nazariy jihatdan asoslab berdi. Olim pedagogikaga o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari kabi tushunchalarni kiritgan.

Sinf-dars tizimi garchi 350 yil oldin asoslangan bo'lsada bugungi kunda ham keng foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:

- bir xil yoshdagi taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qitishning umumiy davriga asosan doimiy tartibni saqlab qoladi.

- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi. Buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi.

- mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi.


- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, shu bois, ta'lim oluvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar.

- darsda ta'lim oluvchilarning ishiga ta'lim beruvchi rahbarlik qiladi va u o'z fani bo'yicha o'qish natijalarini har bir ta'lim oluvchining alohida bilimini baholaydi.

Sinf-dars tizimi atoqli olim K.D.Ushinskiy tomonidan rivojlantirildi. U har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan tomonlarini ko'rsatib beradi.

Darsni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda yana bir ulug' olim A.Disteovich ham hissa qo'shdi. U ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatiga taalluqli o'qitish taoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi hamda ta'lim oluvchilarning yosh imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab beradi.

Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim muassasalarida o'qitishning quyidagi ko'rinishlaridan foydalanilmoqda:



1-shakl. Ta'limni tashkil etish shakllari

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1) Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi;

2) Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi;

3) O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan ta'lim oluvchilarning bilim faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash;

4) Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tarzdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish;

5) Ta'lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta'lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish;

6) Darsliklarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatlariga ega bo'lishga erishish;


7) Ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

8) Darsda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

9) Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

10) Darsda ta'lim oluvchilarning erkinligini ta'minlash;

Demak, dars-ta'lim-tarbiya jarayonini tashkillashtirishning asosiy shaklidir. Haqiqatan ham puxta o'ylangan uslublarsiz dasturiy materialni egallashni tashkillashtirish mushkul. O'quvchilarning izlanishlariga, fol va mustaqil bilim olishlariga yordam beradigan, ularni ijodiy fikrlashga undaydigan va fanga qiziqishini rivojlantiradigan o'qitishning usul va vositalarini takomillashtirish lozim. Shaxsning axloqiy rivojlanishida jamiyat bilan muloqotda bo'lishda inson kasbi muhim ahamiyatga ega. Kasbga mehr qo'yish, uning barcha qiyinchiliklarini o'rganish kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllanishiga turtki bo'ladi. Pedagogik omillar o'quvchida kasb-hunarga oid tushunchalar shakllanishi uchun o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biz bu borada tadqiqotchi Hafizova Nilufar Hamidullayevnaning ushbu masala yuzasidan olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalandik. Mazkur omillarning ta'sirini muallif quyidagicha keltirgan.



1-rasm. Pedagogik omillarning ta'siri

O'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:


- ✚ Kasb haqidagi bilimlarni o'zlashtirish;
- ✚ Hunarga oid bilimlarni o'zlashtirish;
- ✚ Kasb-hunarga oid tushunchalar mazmuni;
- ✚ O'qituvchining o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish bo'yicha pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozimligi;
- ✚ O'quvchida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning davrlari, ularni o'zlashtirish darajalari hamda qiziquvchanlik qobiliyati;
- ✚ O'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish omillarining o'zaro aloqadorligi.

O'quvchida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi talablar asosida aniqlandi:

- a) O'quvchilarning yosh xususiyatlarini o'rganish;
- b) O'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari asosida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish uchun muhit yaratish.

Boshlang'ich ta'lim o'quv rejasiga: "Ona tili", "Matematika", "O'qish", "Tabiatshunoslik" kabi o'quv fanlari kiritilgan. Ushbu o'quv predmetlarining har birida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish uslubiyati ishlab chiqildi. Unga muvofiq "Ona tili"da mashqlar, "Matematika" misol va masalalar, "O'qish" badiiy janrlar, "Tabiatshunoslik" matnlar asosida olib boriladi. Tasviriy san'at, mehnat, musiqa darslarida kichik yoshdagi o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarning nazariy asoslarini amalda qo'llay oladi. Boshlang'ich sinfdagi bolalar turli kasb egalarini hayoti davomida kuzatadilar. Turli kasblardagi ko'rinishlari to'g'risidagi tasavvurlarini ranglar orqali tasvirlaydi. Musiqa darslaridagi "Mavsum qo'shiqlari" kabi o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganib, ijro etish kasb-hunar haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. Mehnat darslarida turli materiallardan gul va o'yinchoqlar yasashni o'rganadilar. Tabiatdan namunalar asosida applikasiya va mozaika ishlarida qatnashadilar. "Odobnoma" darslarida kasb-hunarga oid tushunchalar axloq trbiyasi bilan o'zlashtiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasbiy tushuncha va ko'nikmalarni aniqlash, kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning izchil tizimini ishlab chiqish talabi ortib bormoqda. Tadqiqotchi N.Hafizova boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning texnologiyasini quyidagicha aks ettirgan:



2-rasm. Kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi

Mavzu: Hunar – bebaho boylik.

Dars borishi:

1.Bosqich: Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, davomatni aniqlash, ob – havo haqida suhbat.

b) O`quvchilarni darsga tayyorgarligini nazorat qilish;

O`qituvchi:

Salom aziz bolalarim,

Guli rayhon lolalari

Qani tinglang so`zlarim,

Jajji o`g`il – qizlarim,

Ona yurt egasisiz,

Istiqlol ertasisiz,

Bo`ling aqli rasolar,

Ham bilimdon donalar.

O`quvchilar:

Assalomu alaykum.

O`qituvchi:

Qani bolajonlar bugun darsga kim navbatchi ?

O`quvchi:

Bugun darsga men navbatchi. Darsga hamma to`liq qatnashayapdi. Ob – havo issiq. Ozgina shamol esib turibdi.

O`quvchilar:

Hammamiz sog` omonmiz,

Yangi darsga tayyormiz.

O`qituvchi: Bugungi darsimizga shior tanlab olamiz: “Hunardan rizqing unar”. Bugun o`tadigan mavzudan foydalanib shior tanlab oldik. Shu damda sinf xona eshigi ochilib, ikki alloma bobolarimiz kirib keladi.

Allomalar:

Assalomu alaykum, bolajonlar. Bizlarni taniyapsizmi? Bizlar darslarni kuzatib yurgan edik. Darsga yaxshi qatnashgan o`quvchilarni rag`batlantiramiz. Bu yerda o`zi qanday dars bo`layapti?

O`quvchilar: O`qish darsi. Bizlar sizlarni juda yaxshi taniymiz. Sizlar Alisher Navoiy va Mirzo Bobur bobolarsizlar. Sizlarni ko`plab ruboiy, dono hikmatlaringizdan yod olganmiz.

O`qituvchi:

Sizlar o`tirib o`quvchilarni tinglangiz va ularni darsga qanday ishtirok etishini tomosha qilingizlar.

Allomalar o`tirishib, o`quvchilarni tinglashdilar.

O`quvchilar:

G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo`lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa,

Bulbulga tikondek oshiyon bo`lmas emish.

O`quvchi:

Toleyi yo`q jonimga baloliq bo`ldi,

Har ishniki o`yladim xatolig` bo`ldi.

O`z yurtim qo`yib hind sari yuzlandim,

Yo rab, netayin ne yuz qarolig` bo`ldi.

O`qituvchi:

Rahmat bolajonlarim, sinfdagi o`quvchilarni ikkiga bo`lib olamiz. Birinchi guruhni “Binafsha” deb nomlab oalmiz, ikkinchi guruhni esa “Boychechak” deb nomlab olamiz.

II. Bosqich: O`tgan darsni so`rab baholash.

O`qituvchi:

Uyga vazifa nima edi?

O`quvchi:

“Keksa kulol va shogird” ertagini o`qib kelish.

O`qituvchi:

Dasrga yaxshi qatnashgan o`quvchilarni rag`bat kartochkalari orqali ballab boraman. Qani kim uyga vazifani so`zlab beradi?

O`quvchi:

Bir mo`ysafid kulolning uyiga o`g`lini boshlab kelibdi. Unga hunar o`rgatishni iltimos qilibdi. Kulol rozi bo`libdi. Shogird kulolnikida soz tuproq qazibdi, suv tashibdi. Xullas unnig aytganlarini bajo keltirib yuribdi. Oradan bir necha yil o`tibdi. Shogird kulolchilikni miridan – sirigacha o`rgandim, deb o`ylab ustozidan javob so`rabdi. Ustozi bo`lsa o`g`lim, hunar injiq narsa, sabr-toqat qilib yana bir yil qarashib turganing ma`qul edi - debdi.

Shogirdning sabri chidamay ustozini holi – joniga qo`ymay, fotihasini olibdi. Shogird katta bozordan do`kon ochgan kunlari xaridorlar uning piyola, choynak va ko`zalarini talashib olib ketishibdi.

Ustozi bo`lsa “Mayli, oxiri xayrli bo`lsin!” deb o`z yumushini davom ettiraveribdi. Oradan biror vaqt o`tar-o`tmas shogirdning ishi yurishmay qolibdi. Uning mollarini xarid qilmay qo`yishibdi. U yasagan lagan – tovoqlarning sirlari xiralashib, ko`chib ketayotgan emish.

Oxiri shogird dastmoyasidan ajrab, ko`p aziyat chekibdi. Nihoyat kulolnikiga pushaymon bo`lib qaytib kelibdi. Kulol uning joniga tag`in oro kiribdi. Kulol shogirdiga: “Bolam, alahsimay razm solib tur!” – debdida qurigan idishlarini bir-bir puflab, so`ngra sir beribdi. Shunda laganu – tovoqlarning chiroyi yanada ochilib, yarqirab ketibdi.

Shogird endi uning hunarini batafsil egallab olishga astoydil bel bog`labdi.

O`qituvchi: Yaxshi o`qib kelibsan, deb rag`bat kartochkasi beriladi.

III. Bosqich. O`tgan mavzuning bayoni.

O`qituvchi:

Men ikki guruhga tarqatmali savollar tuzib kelganman. Men shuni sizlarga tarqataman, sizlar javob berasizlar. Binafsha guruhidagilar tayyorlaning

1.Ertak qahramonlari kimlar?

O`quvchi:

1.Kulol va shogird

O`qituvchi:

2.Shogird nima ishlar qildi?

O`quvchi:

2.Soz tuproq qazidi, suv tashidi, loy qildi.

O`qituvchi;

3.Keksa kulo va shogird ertagini kim pyozgan?

O`quvchi:

3.Qudrat Hikmat.

O`qituvchi:

Boychechak guruhidagi o`quvchilar tayyorlaning.

1.Nima uchun shogird ishi yurishmadi?

O`quvchi:

1.Shogird kulollikni chala o`rgangan edi.

O`qituvchi:

2.Hikoyadan qanday saboq oldingiz?

O`quvchi:

2.Qaysi kasbni o`rgansak-qunt bilan o`rganish kerakligini bilib oldik.

O`qituvchi:

3.Siz qaysi kasb egasi bo`lishni istaysiz?

O`quvchi:

3.Shifokor bo`lmoqchiman.

O`qituvchi:

Savollarga tog`ri javob bergan o`quvchilarni rag`bat kartochkalari orqali rag`batlantirib, dam olish daqiqalari o`tkazish. Topishmoqli krossvord

Binafsha guruhi uchun

1					
2					
3					
4					

1.Suvda suzuvchi parranda.

2.Cholg`u asbobi

3.Uy hayvoni

4.Qavat-qavat ko`ylagi bor, tugmasi yo`q

Boychechak guruhi uchun

1	2	3	4	5	6

1.Poliz ekini

2.Charos, husayni, kishmish

3.Yozuv quroli

4.Haftaning 6-kuni

5.Asalxo`r hayvon

6.Ikki yaproq-bir tanda,

Kezar gulzor chamanda.

O`qituvchi guruh ishlarini tekshirib , rag`batlantiradi.

IV.Bosqich. Yangi mavzuning bayoni.

Mavzu: Hunar bebaho boylik.

O`qituvchi:

O`quvchilarga she`rni ifodali o`qib berib mazmunini tushuntirish.

Sarvarjon-kichik dehqon,

Yashar yerla tillashib.

Singlisi bilan har on,

Ish qiladi bellashib.

Yerni chopib avaylab,

No`xot ekdi bu yil ham.

Urug`ni saralab,

O`stirdi piyoz-karam.

Erinmasdan ter to`kib,

Mo`l bo`lsin deb sabzavot.

Shu bois kichik Sarvar,

Qozondi tez yaxshi ot.

Men ekan qovunlar ham,

Qani tez o`sa qolsa.

Hosilini ko`rganlar,

Nomimni tilga olsa.


Olobergan Po`lat bu she`rida Sarvarjon kichik bo`lsa ham, u dehqonchilikka qiziqishini aytgan. U yerni chopib no`xot, piyoz, karam ekar ekan. Sarvarjon kelajakda katta dehqon bo`lib o`zi ekan sabzavotlari orqali el-yurt oldida o`zini yaxshi odam bo`lishini orzu qilgan.

Darsni rangli rasmlar orqali tushuntirib o`tadi.

Shu yerda baliq sekelitidan foydalanib, kasb va hunar nomlarini baliq sekelitida kim ko`proq yozish haqida dam olish o`yinlari o`tkazamiz.

O`quvchi:

Binafsha guruhi va boychechak guruhidan o`quvchilar kelib baliq sekelitiga kasb va hunarga oid so`zlarni yozib ketishadi.



Guruh ishlari tekshirilib rag`batlantiriladi.

V.Bosqich.

Darsni mustahkamlash.

O`qituvchi:

Mana bizlar bugun kasb-hunar tushunchalari haqida so`zladik. Inson tug`libdiki ksb-hunarli bo`lishga inltiladi.Siz qanday kasb-hunar turlarini bilasiz.

O`quvchi:

Kulolchilik, etikdo`z, sartarosh, tikuvchi.

O`qituvchi:

Hunar-bebaho boylik she`rini kim yozgan?

O`quvchi:

Ollobergan Po`lat.

O`qituvchi:

She`r kim haqida?

O`quvchi:

Sarvarjon kichik dehqon bo`lganligi haqida.

O`qituvchi:

U qanday yumushlar bilan mashg`ul bo`lgan?

O`quvchi:

Sarvarjon yerni chopib, no`xot, piyoz ekkan.

She`rni o`quvchilarga ifodali qilib o`qitib chiqadi.Bolajonlar bugungi darsimiz sizga yoqdimi?

O`quvchi:

Ha

Alisher Navoiy- ofarin bolajonlar! Sizlarni faolligingiz va bilimdonligingiz meni nihoyatda quvontirdi. Bundan keyin ham mavzuni astoydil o`ib o`rganing.Sizlar uchun yaratilgan qulay imkoniyatlarga shart sharoitlardan oqilona foydalaning.

Mirzo Bobur- barakallo bolajonlar bundanda a`lo o`qing.

O`quvchilar:

Rahmat, bobojonlar!

VI.Bosqich. Dars yakuni.

Rag`bat kartochkalari sanalib, o`quvchilarga ballar e`lon qilinadi.

Uyga vazifa she`rni yod olib kelish.

Ushbu keltirilgan kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish tizimini texnologiya deyish o'rinlidir. Sababi, buni amalga oshirish, kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllanishida samarali natijaga olib borishni kafolatlaydi. Zero, pedagogik texnologiya – o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning samarjalarini kafolatlovchi pedagogik foyiat jarayonidir. Ushbu texnologiyani bosqichma-bosqich tashkil etish mashg'ulotlarning o'quvchi yoshi va individual xususiyatlariga mosligi, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda uzviy olib borilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash maqsadga erishishimizning asosidir.

2.2 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda ta'limni isloh qilish bo'yicha ko'pgina qaror va qonunlar qabul qilindi. Ushbu qaror va qonunlarda, tegishli me'yoriy hujjatlarda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish vazifalari ham yetarlicha o'z ifodasini topgan. Jumladan, Xalq ta'limi vazirligining 2002 yil 10 oktyabrdagi 153-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Hozirgi kunda kasbga yo'naltirishdan maqsad – o'sib kelayotgan yosh avlodni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashdir. Pedagog-psixolog olimlarning kuzatishlaricha maktab o'quvchilarining taxminan 25-30 % da tanlangan kasbga nisbatan kasbga barqaror qiziqishlar kichik yoshdan shakllanar ekan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda muhim burilish yasadi. Aniqrog'i yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy kadrlar tayyorlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun amalga oshirayotgan ta'lim islohotlarining huquqiy-me'yoriy asoslarini ta'minlab bergan asosiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonunning 1-moddasida "Ushbu qonun fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishidan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan" deb ko'rsatilgan.

Pedagogika fanida kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar mazmunini tanlab olish va tizimlashtirish masalasi yetarlicha ishlanmagan. Kasbga yo'naltirish yoshlarning kasbini erkin va mustaqil tanlashning ilmiy va amaliy tizim sifatida qarashkerak. Shaxsda kasbga yo'naltirish jarayonida maxsus ilmiy-amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Kasb tanlash ishlarini amalga oshirishda mahalliy va mintaqaviy ehtiyojlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Shu bois, kasb tanlashda o'quvchilarni maktabga yaqin joylashgan korxonalar uchun zarur bo'lgan kasblar bilan tanishtirishga e'tibor qaratilishi kerak.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ta'lim-tarbiya maqsadiga yo'naltirishga xizmat qiladi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar tashkil etilishiga qarib turli yo'nalish mazmun va shakllarda olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda bolalarning yoshlik xususiyatlariga qarab, ta'lim muassasasining mahalliy sharoitlarga qarab, o'ziga xos xususiyatlariga qarab quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

Kechalar uyushtirish. Tantanali kunlar, yubileylarni nishonlash; musoqaqalar, bellashuvlar, mushoiralar uyushtirish; sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish; ko'rgazmalar uyushtirish; sayohatlar tashkil etish: a) tabiat qo'yniga; b) tarixiy joylarga; v) ishlab chiqarish korxonalariga; g) turli shaharlarga, ziyoratgohlarga; viktorinalar tashkil etishi; mahalliy faxriylarni, atoqli kishilar, ilg'or kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazish; fan to'garaklarida ishtirok etish; shanbalik va yakshanbaliklarda ishtirok etish.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarni darsda olgan bilimlarini kengaytirishga, to'ldirishga, boyitishga olib keladi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchilar tashkilotchilik va tashabbuskorlik ko'rsatishi kerak.

Kuzatish – o'quvchilarni o'rganishning ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Insonning ilmiga chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo chashmasi bu maktabdir.maktabda o'quvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Unda dastlabki kasbiy ehityojlar yuzaga keladi. Bular mehnatsevarlik, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalashtira bilish, ish o'rnini to'g'ri tashkil qilish, iqtisodiy tejamkorlik, sabr-toqatlilik, talabchanlik, topshiriqni bajarish va boshqalardir. Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib borish, ularni shu olamda mo'ljal olishiga o'rgatish zarur.

O'qituvchi – o'quvchi darslarini kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi xususiyatlarini qaobiliyat, qiziqish, moyilliklarini payqab oladi, bu xislat va fazilatlarni shakllantirib, bular kasbni

belgilashda sosiy amal bo'lishi mumkin. Bolaning kasbiy muhim xislat va fazilatlarini barvaqt aniqlash esa keyingi o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari va Respublikamiz olimlari o'tkazgan ilmiy-tadqiqotlarda, bolajonlarning rayiga qarab, xohish-istagiga intilishni uch bosqichda tajriba-sinov ishlarini umumlashtirib tahlil qilmoqdalar. Diagnostik suhbatlar-yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilish mumkin.

Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi – o'quvchilar qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashda va davlat, hokimiyat, mahalla, oila talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishda, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'quvchini mehnat qilishga o'rgatish, nafaqat mehnatni sevishga u bilan shundayga uyg'unlashishga ko'niktirish kerakki, mehnat uning vujudiga singib ketsin. Ularni kasb-hunarga yo'naltirish orqali biror kasb egasi bo'lishda, o'quvchilar mehnatsiz biror narsaga erisha olmasliklarini tushunib yetsinlar.

Agar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan DTS talablarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarning odob-axloqi va mehnatga layoqatliligi jihatdan yetuk komil inson bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab mehnatsevar bo'lishi va boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Mana shu odatlar bolani odob-axloqli, mehnatga moyillik qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi. Odob-axloq va mehnatga layoqatliliga oid egallashlari zarur bo'lgan minimal talablari:

- kattalar mehnatini qadrlar lozimligini bilishi;
- o'ziga ishonish;
- o'z-o'ziga xizmat qilish;
- uyida yoki bog'cha hovlisida yengil yumushlarni bajara olish, mahallada yoki tomorqada mehnat qilayotgan kattalarga ko'maklashishi;
- o'yinchoqlarni va xona anjomlarini o'z joyiga qo'yishni bilish;

- mehnatsevar bo'lish yaxshi odat ekanligini anglash va boshqalarni amalga oshirsa, boshlang'ich kichik yoshdagi, o'rta yoshdagi, katta yoshdagi, akademik lisey, kasb-hunar bosqichlarining asosi hisoblanadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ikkinchi bosqichi quyidagi mazmunga ega bo'ladi:

- boshlang'ich I-IV sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirishdan maqsad ularni mehnat, kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borish va o'quvchilarda kasb faoliyatiga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bunga erishish uchun ularda mehnat va kasb olami haqida tasavvur paydo qilish kerak. O'quvchilar bilan "Kim bo'lsam ekan", "Kasbim-faxrim", "Kasb tanlash – hayot ko'zgusi" kabi mavzularda suhbatlar, bahslar, munozaralarni tashkil qilish;

- o'z-o'zini baholash malakalarini hosil qilish;

- intellektual va hissiy irodaviy xislatlarni rivojlantirish. Bu yoshdagi bolalar mehnatga halol munosabatda bo'lishlari uning hayotidagi va jamiyatdagi rolini tushuna bilishlarida, har qanday ishni bajarishda intiluvchanlik, tabiat, atrof-muhitga va uning boyliklarini saqlash va boshqalarda namoyon bo'ladi.

Kasbga yo'naltiruvchi mutaxassisning faoliyat amaliyoti psixolog faoliyati bilan uyg'un holda tashkil etilishi lozim. Maktab amaliyoti psixologik metodika, so'rovnoma va qo'llanmalarni o'tkazish asosida ularni nimalarga qiziqishini, nimalarga moyilligi va nimalarga layoqati borligini aniqlaydi. Kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis o'quvchilarning "Tashxis xaritasi"dagi mavjud yozuvlar bilan tanishganidan so'ng aniqlagan qiziqish, moyilliklar asosida ularni kasb-hunarlariga yo'naltirish, kasb-hunarlar haqida ma'lumot berish va mazkur kasb-hunarlarining tavsiflari bilan tantirish va bu kasb-hunarlarini qayerlarda egallash mumkinligini va boshqa ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Bu ishlar individual ravishda yoki qiziqishi, moyilligi va layoqatlari mushtarak bo'lgan o'quvchilar guruhi bilan o'tkazilishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar bilan tanishgandan so'ng o'quvchining qalbida o'z tasavvuridagi kasblardan biriga nisbatan iliqlik, moyillik va qiziqish paydo bo'ladi. O'quvchi ulg'ayganidan keyin unga yoqqan kasbni o'quvchi tomonidan tanlashiga olib keladi. O'quvchi shu kasbni o'z ko'zi bilan

ko'rishi, uning ish sharoitlari bilan tanishishi, shu kasb egalari bilan uchrashish kabi tadbirlarda ishtirok etishi lozim bo'ladi.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis tomonidan o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma'lumotlarni to'liqroq anglab yetishi, ularning kasb tanlashlardagi reallikni vujudga keltirish maqsadida:

1. Maktabda ilg'or kasb egalari, kasb faxriylari bilan, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar;
2. Davra suhbatlar;
3. Kechalar;
4. Ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur tadbir o'quvchilarning shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada qat'iy lashishini vujudga keltiradi. O'quvchi o'zi qiziqqan kasbi haqida, o'z ota-onasiga aytishi tabiiydir. Bu maqsadda ota-onalar bilan o'z frzandini kasbiy qiziqishini aniqlaydigan suhbat, so'rovnomalar o'tkazish foydalidir.

O'g'il-qizlarning kasb-hunar haqidagi bilimlarini rivojlantirishni bog'cha yoshdan boshlan kerak, - deydi psixolog olim Muyassar Ahmedova. Buning uchun bir necha usul va yondashuvlardan foydalanish mumkin. Misol uchun bolalar biror kasb egasi bo'lib rol o'ynaydi. Jumladan, doktor-doktor, tikuvchi-dizayner. Ikkinchi usulda esa bola qaysi rangni ko'proq ishlatishi, qanday predmetni chizishiga qarab tarbiyachi kuzatuvida kasbga moyillik aniqlanadi, ota-onalar yordamida rivojlantiriladi. Raqs, o'yin va musiqa bolalarda kasb to'g'risida ilk tasavvurlarni paydo qiladi. Shu kabi usullar orqali tortinchoq bolalarning qaysi kasbga qiziqishini bilib olish mumkin. Bolalar boshlang'ich sinfga o'tgandan keyin ham bu ishlarni davom ettirish mumkin. Ishlab chiqarish korxonalariga olib borish, turli soha vakillari bilan uchrashuvlar tashkil qilish maqsadga muvofiq. Aksariyat o'quvchilar kasb tanlashda ota-ona yoki biror qarindoshiga havas qilishadi. Agar shu vaziyatda tanlov to'liq asoslanmasi ekan, bola qiziqishiga mos kelmaydigan kasb tanlashi mumkin. Har bir bolaning zarur bilim va kasb-hunar egasi bo'lishida, el-yurtga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayishida oila, mahalla, maktab hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Mazkur munosabatlar zanjiri shunday mustahkam bo'lishi

kerakki, bir bola taqdiriga ularning barchasi birdek mas'uliyat sezsin. Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi Ahmad Yassaviy nomidagi 7-maktabda kasb tanlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdik. Bolalarda kasb tanlash masalasida ikkilanish kuchli bo'ladi. Shu bois, psixologik-didaktik testlar yordamida qiziqishlarini imkoniyat boricha ertaroq aniqlash kerak bo'ladi. Ana shularni nazarda tutgan holda o'quv yili oxirida uch marta so'rovnoma o'tkaziladi. Anketadagi savollar ota-onalar yordamida to'ldiriladi. "Bolaangiz qaysi kasbga qiziqadi?", "Farzandingizni qaysi kasb egasi bo'lishini xohlaysiz?", "Yo'nalishi bo'yicha o'quv yurtida o'qishini xohlaysiz?" kabi savollar yordamida aniqlanadi va tahlil qilinadi. O'quvchilarni qiziqishi "Siz qanday to'garakka qatnashasiz?" kabi savollar yordamida aniqlanadi.

Ilm dargohida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha qiziqarli usullardan foydalanilayapti. Misol uchun "Kaktus" usulida har bir o'quvchiga oq qog'oz tarqatiladi, 20 soniya vaqt davomida kaktus rasmni chizish talab etiladi. Bunda har bir xarakat orqali yutuq va kamchiliklar, ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Kaktusning tikani, rangi va chizilish jarayoni o'quvchining qaysi kasbga moyilligini ko'rsatadi. Aytaylik, shartni yuzaki bajargan o'quvchi o'ta siinchkovlik talab etmaydigan kasbga tavsiya etilmaydi. Mayda detallarigacha e'tibor bilan ifodalagan o'quvchi esa o'ta sabrli bo'lib, aniq fanlar bilan shug'ullangani ma'qul. Bir so'z bilan aytganda bu iqtidorini, qiziqishini aniqlash mumkin.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishi boshlang'ich sinfdanoq olib boriladi. Bunda maktab psixologi va sinf rahbarlari hamkorligiga tayanish yaxshi natija beradi, deydi maktab direktori Mamatqulov Nasrullo.

Kasb tanlashda sinf rahbarining vazifalari – o'quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning moyilligi, qiziqishlari, qobiliyatlarini va har tomonlama o'rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan suhbatlar, savol varaqasini to'ldirish va o'quvchining shaxsiy varaqachasi – tavsiyanomasi to'ldirgan holda unga muntazam ravishda kuzatishga yordam beradi. Sinf rag'bari o'quvchi shaxsini o'rganish negizida muayyan dastur asosida mehnat ta'limini

davlat standartiga tayangan holda kasbga yo'naltirish ishini olib boradi. Bunda sinf soatlaridan, fakultativ mashg'ulotlardan va ekskursiyalardan foydalaniladi.

Ba'zan o'quvchi o'zi istamay, ota-onasining xohishi bo'yicha kasb tanlaydi. Oradan ma'lum muddat o'tib o'sha sohaga layoqatsizligi oydinlashadi. Shunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchining ayni yoshdagi noto'g'ri tanlovi kelajakda hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushuntiradi. Ota-onalarga bu borada zarur maslahatlar beriladi.

Yildan-yilga takomillashib borayotgan kasb-hunarga yo'naltirish ishlari maktab va kollej hamkorligini yanada mustahkamlash zarurati bu boradagi faoliyatini bir-biriga bog'liq holda tashkil etishni taqozo qilmoqda. Shu bois maktablarda ma'lum bir oy davomida yaqin hududdagi kasb-hunar kollejlari va akademik liseylarga sayohat uyushtirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu orqali o'quvchilar kollej yoki akademik liseyning shart-sharoitlari bilan yaqindan tanishayapti. Jumladan, tajriba-sinov maydonchamiz bo'lgan 7-maktab o'quvchilari ham maktab hududiga yaqin bo'lgan kasb-hunar kollejariga borib, u yerdagi sharoitlar bilan tanishmoqda. O'zlariga yoqqan kasblar to'g'risida tegishli tushunchaga ega bo'lishayapti.

Maktab jamoasining sa'y-harakatlari bilan ilm dargohiga kasb-hunar ta'limi muassasalari vakillari, ota-onalar, sabiq bitiruvchilar taklif etilib, ular bilan qiziqarli suhbatlar uyushtirildi. Maktab o'quvchilari dastlab kasb-hunar kolleji faoliyatini kuzatib, faxriy pedagog va tajribali ustozlar bilan suhbatlar uyushtirsa, keyinchalik maishiy xizmat ko'rsatish kollejining o'quv va ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi. Shuningdek, transport, maishiy xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan kollejlari va akademik litseyiga sayohat uyushtirildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning o'rni katta. Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi Ahmad Yassaviy nomli 7-maktabda 4-"A" sinf o'quvchilari bilan "Duradgor usta Ergash bobo bilan uchrashuv" mavzusi bo'yicha tadbirning bayoni.

Maqsad: duradgorlik kasbi va duradgor ustalar haqida ma'lumot berish, o'quvchilarda estetik, mehnat, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

Mashg'ulotga kerakli jihozlar: turli shakl va ko'rinishdagi eshik, rom hamda beshiklarning surati va ularning andozalari.

Mashg'ulotning borishi:

Sinf rahbari N.Burxonova: - Hurmatli bolajonlar, bugun duradgor, usta Ergash bobo bilan tanishamiz. U kishini maktabimizga mehmonga taklif qilamiz. Qo'ligul ustamiz Jizzax viloyati Paxtakor tumanida tug'ilgan. Usta kichik yoshidanoq otasi yasagan eshik-romlarni, beshiklarni kuzatgan, uning sir-asrorlarini o'rgangan. Yoshi ulg'ayib borgach otasi yonida yurib, bevosita otasiga nafi tegadigan bo'lgan. U ko'proq beshiklar yasashga qiziqardi. Otasi tol, tut novdalarini olib, salqin joylarga qo'yishini, vatq soati bilan ulardan chiroyli beshiklar yasaganligini guvohi bo'lgan.

- O'g'lim, bobolarimizning beshikni toldan, tutdan yasaganliklarining siri bor, deydi. Chunki, tol va tutdan tayyorlangan beshiklar bolaning sog'ligiga yomon ta'sir ko'rsatmaydi. Uning novdalarini suvda, soyada saqlaganligining ma'nosi, bu material egiluvchan bo'ladi. Muhimi, bu kasb halollikni, niyati poklikni talab qiladi. Kelgusida rizqingni shu kasb orqasidan topsang, kam bo'lmaysan, biring-ikki bo'ladi. Eng muhimi, sen yasagan beshiklarda haqiqiy Alpomishlar, Oybarchinlar voyaga yetadi. Dunyoga kelgan har bir inson bolamga deb yashaydi-da axir, - der edi. Otamning o'gitlariga amal qilib kam bo'lmadim.

Davrada ishtirok etayotgan ko'p farzandli onalardan biri Shafolat xola suhbatga ko'shila ketdi:

- Ha bolalarim, usta haq gaplarni aytadi. Eskidan gap bor. Beshik bolasi – bek bolasi. Bola beshikda yotganda bolaning tagi quruq, toza turadi. Bolaning bir maromda tebranishi, ona allasining hamohangligi bolaga yaxshi ta'sir etadi, uni tinch, osuda uxlashiga, ruhan sog'lom bo'lishiga t'asir ko'rsatadi.

O'qituvchi: Beshik to'g'risida Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida, Ibn Sino bobomizning asarlarida ham yaxshi ma'lumotlar berilgan.

Sinf rahbari: Beshik to'ylarini aytmaysizmi, qadimdan oila to'ng'ich farzand tug'ilganda beshik to'ylari o'tkazilgan.

O'qituvchi: Bolalar mana beshik to'g'risida ko'p va xo'p yaxshi fikrlarni eshitdingiz. Endi beshiksozlik to'g'risida olgan taassurotlaringiz asosida beshik rasmni chizamiz.

Beshik yasashning sir-asrorlari bilan yaqindan tanishish uchun usta bolalarni ustaxonasiga taklif qiladi.

“Beshiksozlik ustaxonasiga qilingan sayohat” mavzusini bayoni

Sayohatning maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilimlarini mustahkamlash, ustalar mehnatiga mehr uyg'otish, ularning mehnatini qadrlashga o'rgatish, beshiksozlik tarixi, uni yasash usullari to'g'risida tushuncha berish.

Sayohat uchun kerakli jihozlar: bolalar bilan amaliy san'ati va hunarmandchilik turlari to'g'risida suhbatlashish, beshik yasash hunariga o'quvchilar e'tiborini jalb qilish, muqaddas “Qur'on” va hadislarda hamda allomalarning kasb-hunar to'g'risida bildirgan fikr-mulohazalarini, xalq maqollarini o'rgatish.

Sayohatning borini: bolajonlar bugun beshiksoz usta Ergash boboning ustaxonasiga tashrif buyurdik. Usta bobodan beshik sirlarini o'rganib olasizlar, shu bois bu yerga tashrif buyurganmiz.

Ergash bobo ustaxonasiga kasb-hunar sirlarini o'rgangani keldik.

Usta bobo: - Xush kelibsizlar, bolalarim. Men sizlarga beshiklar to'g'risida bilganlarimni gapirib beraman. Beshik yasashning tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Uni azaldan tut, tol novdalaridan yasab kelishgan. Uning uzunligi 1-1,5 metr, balandligi 50 santimetrdan 60 santimetrgacha bo'ladi. Uning tuzilishi to'rttadan sakkiztagacha ustabozi va taqbozilar ustiga yupqa taxtachalar o'rnatiladi.

(11-bet)

Beshikning ikki tomonidagi yarim doira shaklidagi oyoqlariga uzunligi 1,2 metrli, eni 8-10 santimetr bo'lgan qosqon o'rnatiladi, unga dasta birlashtiriladi. Dastaning ikki tomoniga qubbalar yasaladi. Bolaning bosh va oyoqlarini muhofaza qilish uchun egmochlarning ichiga boshlog'i va bog'alak cho'plar o'rnatiladi.

Beshiklar naqshlar bilan bezatiladi, so'ngra rang-barang bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Beshik qadimdan o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg'iz va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Muhimi, har birimiz qo'li gul ustalar tomonidan yasalgan beshiklarda katta bo'lganmiz. Men yasayotgan beshiklarda ham xalqimizning asl farzandlari voyaga yetsa, niyatimga yetaman. Bu men uchun baxt. Axir kasbi borning baxti bor.

Alimov Bekzod – o'quvchi: - Men xalqimizning yaxshi ko'rgan farzandi Muhammad Yusufning she'ridan parcha aytsam maylimi?

Bolalar: - Eshitamiz, qani-qani...

Ko'hna tol beshikdan,

Boshlangan olam.

Senga iddaolar,

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim, deb,

Bir kuni onam.

Vatan,

Kimligingni bilmay sevaman.

Bolalar: - Ofarin, ofarin, rahmat.

Aziza Umrzoqova: - Imom Buxoriy bobomiz "Hech kim qo'l mehnati bilan topgan taomidan ko'ra yaxshiroq narsa yegan emas", deb aytgan.

Sinf rahbari: - Tarixdan ma'lumki, Odam (alayhissalom) dehqonchilik, Nuh (alayhissalom) durudgorlik, Dovud (alayhissalom) temirchilik, Idris (alayhissalom) esa xattotlik bilan shug'ullanganlar.

Toshpo'latovna Maftuna: "Kasb tanlovi – taqdir tanlovi".

Fayzullayeva Dinora: Hunar – hunardan – rizqing unar.

Usmonova Shohida: Yigit kishiga yetmish hunar oz.

Shokirova Sarvinoz: Hunarli kishi xor bo'lmas.

Usta bobo: - Sizlarga rahbat, dilimdagi gaplarni aytdingizlar. Barakalla bolalarim, fikrlaringizni eshitib quvondim. Hayot – doimo mehnat, kasb-hunarning orqasidan fayzli bo'ladi. Shu bois, hozirdanoq o'zingiz yaxshi ko'rgan kasbni

etagidan tutishga intilinglar. Bu yo'lda qiyinchiliklar, mashaqqatlardan cho'chimanglar, niyatlaringizga yetasizlar. Ustaxonamizning eshigi sizlar uchun doimo ochiq.

Bolalar usta bobo bilan xayrlashib, uylariga tarqaladilar.

Quyida sizlarga Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi Ahmad Yassaviy nomli 7-umumta'lim maktabining 4-“A”sinfida o'tkazilgan **“Ma'naviyat ” soati ishlanmasini** keltiramiz

Darsning mavzusi: KASBIM FAXRIM

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

Kasblar haqida ma'lumot berish. O'quvchilarning kelajakda qanday kasb egasi bo'lishga qiziqishlarini aniqlash, ularga yo'l yo'riqlar ko'rsatish.

Tarbiyaviy maqsadi:

O'quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni shirinsuxanlikka, so'zlashuvda madaniyatli munosabatga, mehnatsevarlikka, halollikka, ona yurtni asrab avaylab o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsadi:

Ularni yoshlikdan kasb tanlashga, hunar o'rgatishga tayyorlab boorish. Vataniga sadoqatli farzand bo'lish, buning uchun, eng avvalo ilm olish lozimligini uqtirish. Mehnat va ilm saodat kaliti ekanligini dars jarayonida mukammal tushuntirib borish.

Darsning jihozi: Kasblarga oid rasmlar "Kasbim-faxrim" deb yozilgan plakat o'quvchilar qo'llari bilan yasagan narsalar.

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O'qituvchi bugungi darsni e'lon qiladi. O'quvchilar darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

2.O'tilgan mavzuni so'rash.

Biz o'tgan darsda "shaxrimiz-faxrimiz" mavzusi bo'yicha sayohat uyushtirgan edik. Men sizga bo'gan joylarim asosida referatlar tayyorlab kelishni topshirgan edim. O'quvchilar yasab, tayyorlab kelgan referatlarini topshiradilar.

Yangi mavzuning bayoni:

Bolalar bugungi ma'naviyat soatimizning mavzusi "Kasbim-faxrim" deb nomlangan. Bugun sizlar bilan kasb hunar haqida gaplashamiz.

Buyuk allomalarimiz yoshlikdan hunar egallashning ahamiyati haqida juda ko'p fikrlar bayon etganlar. Bir donishmand farzandiga shunday nasihat qiladi. "Aziz o'g'lonlarim hunar o'rganinglar. Hunar qaynar buloq tunganmas davlatdir. Molu dunyoga ishonch yo'q".

Bobomiz Bohovuddin Naqshbandiyning "Ko'nling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin degan hikmatli so'zlari bor. Chunki mehnat insonni haqiqiy baxt sari eltuvchi mukammallikdir.

O'quvchilar bobokalonlarimizning hikmatli so'zlari, maqol va she'rlaridan namunalar aytishadi.

Bolalarning kelajakda kim bo'lishari haqida Abu Ali Ibn Sino bobomiz bilan bog'liq sahna ke'rinishi ko'rsatiladi.

-Assalamu alaykum, hazratim!

-Va alaykum assalorn, bo'tam!

-Hazratim, sizning yoningizga bir muhim ish bilan kelgan edim.

-Xo'sh, bo'tam, o'sha muhim ish nima ekan?

-Hazratim, yakkayu yagona farzandim kelajakda qanday kasb egasi bo'lishini bilishni istardim. Shuni aytib bersangiz.

Ibn Sino bolani o'z yoniga chorlabdi.

- Qani, bo'tam, bu yoqqa kelchi, mafoa bu tayoqni ol, buni nima qilsa bo'ladi?

Bola tayoqni olib, xuddi nihol kabi yerga ekayotganoek harakatni ko'rsatibdi.

- Mana, bo'tam, o'zingiz ko'ringiz, sizning farzandingiz kelajakda bog'bon bo'ladi.

- Ming rahmat, hazratim. Kelajakda farzandim bog'bon bo'lib, insonlarga hamisha foydasi tegib yursa, boshim ko'kka yetardi.

- Assalomu alaykum!
- Va alaykum assalom!
- Hazratim, iltimos, farzandim kelajakda kim bo'lishini aniqlab bersangiz?
- Qani, bo'tam, bu yoqqa kelchi, mana bu tayoqni ol. Tayoq mana nima

qilasan?

Bola tayoqni olib, nay kabi chala boshlabdi.

-Sizning farzandingiz kelajakda sozanda bo'lib, o'zining ajoyib kuylari bilan xalqning hurmat-e'tiboriga sazovor_bo'ladi.

Hunar organ, ey o'g'lon,

Hunar senga asqotar.

Hunarlar ko'p, soni yo'q,

Sanasang, qator-qator.

O'rgan, o'g'lim, yigitsan,

Yetmish hunar oz senga.

Hunarli er kam bo'lmas

Maqolin ol esingga.

Mayli duradgor usta,

Chilangar bo'l, xohishing,

Xalqqa biror manfaat,

Yetkazsin qilgan ishing.

Binokor bo'l, ha, balli,

Bizga soz uylar kerak.

Bastakor bo'l, marhamat,

Sho'x qo'shiq, kuylar kerak.

Rizamat bobodek bo'l,

Yashnat Vatan bog'larin.

Har qarichi oltindir,

Cheksiz bug'doyzorlarin.

Hunarli bo'l, ilm ol,

Har ikkisi ham zarur.

Bular - bu baxtu iqbol,

Belga quvvat, ko'zga nur.

O'quvchilar birin-ketin maqol va nasihatlardan namunalar o'qiydilar.

Yoshlikdan o'zingni o'zing eplashga odatlan.

Uy ishlarini bajarishda ota-onalaringizga yordamlashing.

Mehnat - baxt keltirar. - Mehnat - yarim ibodat.

Ishga jonu dilingiz bilan kirishing, odamlar baraka topsin, ota-onasiga rahmat, qo'l-ko'zi dard ko'rmasin, deyishsin.

Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan. Birovlar ishlayotganda tomoshabin bo'lib turish odobdan emas.

Hunaring bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda.

Qo'lingizdan kelmaydigan ishga qo'l urmang. Urinchoqlik, hojatbarorlik yaxshi fazilat.

Mehnatni sevish, g'ayrat va matonat bilan ishlash lozim. Bunda uchta shirin meva bor:

- tan salomatligi;

- ko'ngil rohati;

- obro'ning ortishi.

-Mehnatni salomatlikning kaliti, deb bil.

Eng yaxshi axloqiy va estetik dori mehnatdir. «Avesto»dan: «Mehnat qilmaydigan kishi, sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida o'tirasan», Mehnat bilan yashab, o'z hayotini mehnat bilan yashnatib kelayotgan odamlarni hurmat qilish, ularni boshga ko'tarish, hordiqclarini, huzur- halovatlarini o'yash odamiylikning eng muhim shartlaridan biridir.

O'qituvchi: - Mana, biz buyuk ajdodlarimizning hikmatli so'z va nasihatlarini, o'gitlaridan tingladik. Ushbu nasihatlariga amal qilgan siz, o'quvchilar, kelajakda albatta, aqlli, dono, mehnatsevar, izzatli insonlar bo'lib yetishasiz.

Aziz, bolalar, bu nasihatlarini esingizdan chiqarmay, unga doimo amal qiling.

Bolalar «O'quvchiga ustalik» she'rini yoddan aytishadi.

O'qituvchi: - Aziz o'quvchilar, hademay, vaqt o'tib, maktabni bitirasiz. Har qaysingiz o'zingiz yoqtirgan kasbni egallash uchun turli kollej va litseylarga so'ngra oliygohlarga o'qishga kirasiz. Hozirdanoq vaqtni bekor o'tkazmay, ilm olib, qunt bilan o'qishingiz darkor.

Bir o'quvchi «Kim bo'lsam ekan?» she'rini oqiydi. Shundan so'ng turli kasb egalariga xos kiyinishgan bolalar o'rtaga chiqadi va she'r aytadilar:

Qo'lida kitob va daftar tutgan o'quvchi:

*O'qituvchi -ulug kasb,
Kelajakning ziyokori atalur.
Minglab yurtim farzandlari qo'lida,
Ilm olib, kamolotga yetadir.*

*Farmer- paxtakor:
Paxtakor akam kabi,
Shu kasb egasi bo'lgum.
Mashinada paxta terib,
Men elimga tanilgum.
Ona yurtim qo'llagay,
Ko'ksim tovlar medalga.
Eh, hozircha yetmaydi,
Oyoqlarim pedalga.*

Muhandis:

*Oilada dadajonim
Muhandis quruvchilar.
Mehnatda doim faol,
Ham ish yurituvchilar.
Men ham dadajonimga
Niyatim - izdosh bo'lay.
Muhandislik kasbini
Havas qilib, ulug'lay.*

Sartarosh (oq xalatda, qaya taroq qo'lida):

*Hunarlarning ichida
Zo'ri bilsang - sartarosh.
Orasta men tufayli
Sochu soqol, qalam qosh.*

Yana bir o'quvchi vazminlik bilan so'zlaydi:

*Men vazirman, xalqim hamda Vatan uchun jon fido.
Xizmat qilsam ey-yurt uchun Ona xalqim qilar duo.*

Yozuvchi qo'lida kitob: -

Kitob yozib odamlarga yaxshilik qilaman.

Qalam bilan yovuzlikka qarshi men kurashaman.

Quruvchi:

*Orzularim ushalib,
Men quruvchi bo'laman.
Osmono'par binolar,
Maktab, bog'cha, saroyiar,
Qurishni do'ndiraman.
Dersiz: Buni kirn qurgan?
Javohirning ishi bu,
Zo'r quruvchi bo'lgan.
Albatta, bu – zo'r orzu,
Bunga kerakdir savod.
Yaxshi o'qisam agar,
Orzuim yozar qanot.*

Uchuvchi:

*Tegib o'tsam bulutga,
O'xshab goho burgutga.
Uchuvchi bo'lsam deyman,
Samoni quchsam deyman.*

Nonvoy:

Issiq tandir oldida,

Non yopish ham osonmas.

Nonni isrof qilganlar,

Buni bilsa, yomonmas.

Duradgor usta:

Yog'och taxta tilga kirar,

Duradgorning qo'llarida.

Stol, stul tayyor bo'lib,

Turar uy to'rlarida.

Arra, randa, bolta, tesha,

Duradgor ish quroli.

Halol mehnat qilib topar,

Osh bo'lsin yegan noni.

Tikuvchi:

Chiroyli liboslarni

Juda yaxshi ko'raman.

Katta bo'lsam, albatta,

Zo'r tikuvchi bo'laman.

Sizga nima? Ko'ylakmi?

Yo tikib beray nimcha?

Shoshmay turing, azizlar,

O'rganib olav picha.

Shifokor:

Shifokor bo'lay men ham,

Dardlarga bo'lay malham.

Buvi, amma, xolaning,

Dunyodagi hammaning,

Dardiga topay davo.

O'qituvchi: - O'quvchilar, ma'lumki, huquqlarimiz bosh qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamiz moddalarida birma-bir belgilab qo'yilgan. Uning har bir

moddasida inson manfaatlari aniq namoyondir. O'quvchilar Qomusimizning inson huquqlariga doir moddalaridan misollar keltirishadi:

1 -o'quvchi: - Har kim bilim olish huquqiga ega. 41-modda. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

2-o'quvchi: - Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. 45- modda.

3-o'quvchi: - Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalaming huquqlari davlat himoyasidadir. X bob, 45- modda.

4-o'quvchi: - Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga egadir. IX bob, 37- modda.

5-o'quvchi: - Barcha fuqarolar Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini bajaradilar. IX bob, 47-modda.

Ona Vatan, millat sha'ni haqida she'r aytiladi.

Millat ruhi yashar erk kitobida,

O'zbekona yangrar qo'shiq, kuyimiz.

Ilmu fan, texnika, hunar bobida

Dunyo andozasi - orzumiz.

Biz elning yosh kuchi -qudratimiz,

Vatan kutar, safdosh do'stim, yodda tut!

Biz - ajdodning voris avlodlarimiz,

O'lkam kelajagi - buyuk ona yurt.

Poyimda zaminim - shu ko'hna Turon,

Barqaror millatim, o'z ona tilim,

«Kasb-hunar egalla, ol ilmu urfon»,

Deya bizni chorlar mehnatkash elim.

(Maqsud Shayxzoda she'd bilan darsga yakun yasaladi).

Gulchilar guli bilan,

Olim usuli bilan,

Ishonch mahsuli bilan,

Shoirlar she'ri bilan,

*Poytaxtning relslari,
Tuzagan shahri bilan,
Gilamdo'z gilam bilan,
O'quvchi qalam bilan,
Xonanda maqom bilan,
Oshpazlar taom bilan,
Bog'bonlar uzum bilan,
Konchi, qora gavhar-la,
Paxtakor oq-zar-la,
«Labbay» deya Vatan da'vatlariga,
Savlat qo'shar, elu yurtning savlatlariga.*

O'qituvchi:

Mana, o'quvchilar biz mehnat va mehnatsevertik haqida mukammal kasb-hunar egasi bo'lish, halol rizq-ro'z topib, baxdi yashash, mamlakatimizning gullab-yashnashiga o'z hissamizni qo'shish lozimligi borasida keng tushunchaga ega bo'ldik, Mehnat borasidagi she'rlar, hikoyalar, rivoyatlar, hikmatli so'zlarni qiziqib o'qidik. Aziz bolalar, kelajakda mehnatsevar bolib ulg'ayib, eng yaxshi fazilatlarimiz bilan kattalar mehrini qozonaylik. Vatanga munosib farzand bo'lib ulg'aymoq uchun esa, eng avval, odobli bo'lmoq, katta-yu kichikni hurmat qilmoq, mehnatning qadriga yetmoq, bobolar o'gitiga amal qilmoq, ota-ona, ustoz aytganlarini ado etmoq zarur bo'ladi. Siz, bolajonlar, bularning barchasini yodingizdan chiqarmasangiz bo'lgani.

Dars yakunida faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantirilib, uyga vazifa beriladi.

III BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KASB-HUNARGA OID TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIGI

3.1 Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish va uning natijalari tahlili

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini joriy etish bilan bir qatorda kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ham uning tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari shaxs rivojlanishini kuzatish, kasb haqida axborotlarni tarbiyalanuvchilarga yetkazish, qiziqish, qobiliyat va tug'ma layoqatlarni aniqlash, kasbiy tashxis qo'yish, kasbiy maslahatlar berish, kasbiy o'zlikni anglash kabilarni o'z ichiga oladi.

Pedagog-psixolog olimlar, xalq ta'limi xodimlari haqiqiy kasb-hunar egalarini tayyorlash borasida izlanishlar olib bormoqda. Biroq oldinda qilinadigan ishlar ko'p. Yoshlarning muayyan qismi o'z kelajagi, kasbi haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lmasdan hayotga qadam qo'ymoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar, 30 yoshgacha bo'lganlar soni 18 million kishidan ortiq. Boshqacha aytganda mamlakatimiz aholisining qariyb uchdan ikki qismi, to'g'rirog'i 64 foizini yoshlar tashkil qiladi. O'zbekistonda oila o'rtacha 5 kishidan iborat, ya'ni bizda olti milliondan ziyod oila bor. Taxminiy qilib aytganda har bir oila o'rtacha uch nafardan bolaga ega.

Bizda har yili 500-600 ming bola dunyoga keladi. Har yili yarim milliondan ortiq bola maktabning birinchi sinfiga boradi. Har yili shuncha bola umumiy ta'lim maktabini, kolleji, liseylarni bitiradi. Aholi soni har uch yilda bir millionga ko'paymoqda.

Yoshlari ko'p bo'lgan mamlakatga kelajagi bor mamlakat deb qaraladi. Chunki, ortimizdan muntazam ravishda va yetarli darajada ishchi kuchi yetishib kelayapti. Bunday yurtda har qancha yangi ishlab chiqarish korxonasi ochsa bo'laveradi.

Yangi zamon talablari darajasidagi yosh kadrlar tayyorlash – bugun har qachongidan muhim. Chunki, davlat va jamiyatni ham ko'p-ko'p ishlashga, yoshlar o'rtasida mavjud muammolarni o'rganib, ularni hal etishga undaydigan

masala qancha. Bu haqda muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "O'z-o'zidan ayonki, aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizning hali-beri yegilmagan muammolariga e'tiborimizni jalb etish, ularni hayotimizda, haqiqatan ham, hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchiligimizning diqqat markazida turishi shart".

"Yoshlar yili" Davlat dasturida aynan shu jiddiy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu jihatdan ko'rsatib o'tilganidek:

- yigit-qizlarimizning olgan bilim va kasbini amaliy hayotda namoyon etishi va ishlatishi uchun o'quv dargohlarini bitirib chiqayotgan bolalarimizning hayotda o'ziga mustahkam o'rin egallashi uchun ko'mak va keng imkoniyatlar tug'dirib berish;

- yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish va ish bilan ta'minlash va hokazo.

Savol tug'iladi, hamma yoshlar ham kasblar haqida yetarli tasavvurga, tushunchaga egami? Kasblar kasb egasidan qanday sifatga, xususiyatga ega bo'lishni talab qiladi? Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning holati, imkoniyatlari qanday?

Ushbu muammoning yechimlarini o'rganish maqsadida Jizzax viloyati, Paxtakor tumani Ahmad Yassaviy nomidagi 7-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarida kuzatishlar, uchrashuvlar, suhbatlar va turli ko'rinishdagi tajriba-sinov ishlari, tadbirlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida 7-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'qituvchilari, maktab rahbarlari, ota-onalar, mahalla-jamoatchilik vakillari va boshqalar qatnashdilar.

Tajriba-sinov ishlari prof. N.Shodiyev, O'.Tolipov, N.Hafizova, P.Xolmatov, B.Muranov va boshqalarning ilmiy ishlarida keltirilgan umumiy tavsiyalardan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari hamda ta'lim maqsadlariga mos ravishda olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari maxsus tuzilgan dastur asosida bosqichma-bosqich olib borildi. Ko'plab tarqatmali va ko'rsatmali materiallar ishlab chiqildi, tahlil qilindi,

ko'paytirildi, o'quvchilarga va o'qituvchilarga, maktab rahbarlariga berildi. Tajriba-sinov ishlarida 300 nafardan ziyod boshlang'ich sinf o'quvchilari, 12 nafar o'qituvchilar qatnashdilar. Ularga quyidagi materiallar tarqatildi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar to'g'risidagi tushunchalarni o'rganish so'rovnomasi (1-ilova).

2. Kichik yoshdagi o'quvchilar ota-onalariga farzandlarining kelajakda qanday kasb-hunar egasi bo'lishini aniqlash so'rovnomasi (2-ilova).

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan sinf rahbarlarining olib borayotgan ishlarini o'rganish so'rovnomasi (3-ilova).

4. Maktab rahbarlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan olib borayotgan faoliyatini o'rganish so'rovnomasi (4-ilova).

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda maktabdagi o'quv-tarbiyaviy jarayon kuzatildi, o'quvchilarning hujjatlari, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarining uslubiy ta'minoti, umumta'lim maktabining hujjatlari bilan yaqindan tanishildi, ko'plab darslar kuzatildi, tahlil qilindi, sinov mashg'ulotlari o'tkazildi. Suhbatlar, uchrashuvlar uyushtirildi, sinov mashg'ulotlari, tadbirlari ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishni aniqlash uchun 1, 2, 3, 4-so'rovnomalar bir-birini to'ldiradigan qilib tuzildi. 1-so'rovnomada 7 ta savol, 2-so'rovnomada 6 ta savol, 3-so'rovnomada 6 ta savol, 4-so'rovnomada 6 ta savol tuzildi va so'raldi.

1-so'rovnomadagi 7 ta savolni tuzishda 7-11 yoshli o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi va unga quyidagi savollar kiritildi:

1. Siz qanday kasblarni bilasiz?
2. Siz tanlagan kasbga oiladagilarning munosabati?
3. Qaysi fanlarga ko'proq qiziqasiz?
4. Tanlagan kasbingizning qaysi jihatlari sizni ko'proq qiziqtiradi?
5. Sizningcha kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

6. Siz tanlagan kasbingiz bo'yicha biror korxonaga yoki fermer xo'jaligingizga bordingizmi?

7. Siz tahsil olayotgan maktabda qaysi kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazilgan?

2-ilovada keltirilgan so'rovnomadagi 6 ta savol ota-onalarga farzandlarining kelajakda qanday kasb-hunar egasi bo'lishini aniqlash maqsadida tuzildi. Unga quyidagi savollar kiritildi:

1. Farzandingizni kelajakda qaysi kasb-hunar egasi bo'lishini istar edingiz?

2. Farzandingizni kelgusida qaysi kasb-hunar egasi bo'lishi to'g'risida suhbatlashib turasizmi? Ular bilan fikringiz mosmi?

3. Farzandlaringiz sizlarning kasblaringizga qiziqadimi?

4. Dilbandingiz oilada bo'sh paytlarida qanday yumushlar bilan shug'ullanadi?

5. Farzandingiz tanlagan kasbga qanday tayyorgarlik ko'rayapti?

6. Kasb tanlash to'g'risida farzandingizning o'qituvchisi bilan suhbatlashib turasizmi?

3-ilovadagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan sinf rahbarlarining olib borayotgan ishlarini o'rganishga bag'ishlangan quyidagi savollar kiritildi:

1. Siz rahbarlik qilayotgan sinfda o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish bugungi kun talablari darajasidami?

2. O'quvchilarda kasb-hunar to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda darsning imkoniyatlaridan qanday foydalanasiz?

4-ilovadagi maktab rahbarlariga boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan olib borayotgan faoliyatni o'rganish maqsadida tuzildi va quyidagi savollar kiritildi:

1. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini qanday izohlaysiz?

2. Bolalarning kasb-hunar egasi bo'lib voyaga yetishishida oila, mahalla, maktab hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan?

3. Siz rahbarlik qilayotgan ziyo maskanida qanday to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda maktab psixologining amaliy yordami qanday bo'layapti?

5. Ilm dargohingizda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazilib turiladimi?

6. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining pedagog-psixologlari maktabingizda bo'lib, kasb-hunarga oid suhbatlar uyushtirganmi?

1-ilovadagi "Siz tanlagan kasbga oiladagilarning munosabati", - degan savolga 4-"B" sinf o'quvchisi Abdusattarova Hilolaning javobi:

- Dunyoda kasblar ko'p. Ammo, men uchun eng yaqini tarbiyachilik. Sababi, bolalar bilan birga bo'lishning zavqli tomonlarini onam ishlaydigan bog'chada his qilganman. Meni kelgusida ushbu kasbni egallashimni ota-onam qo'llab-quvvatlaydilar.

2-ilovadagi "Dilbandingiz oilada bo'sh paytlarida qanday yumushlar bilan shug'ullanadi?", - degan savolga 3-"A" - sinf o'quvchisi Shakarboyev Muzaffarning otasi Shodiyor Ne'matovichning javobi:

- Qishloq sharoitida bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Dehqonchilikda kun ko'ramiz. Birovdan kam joyimiz yo'q. Boshqa farzandlarim qatori Muzaffar ham yerga mehr qo'yganlardan. Shaxsiy tomorqamizdagi uy-ro'zg'or uchun yetishtiriladigan olma, uzum, bodring, pomidor, qovun-tarvuzlarni yetishtirishda bolalarim yaqin ko'makchim. Muzaffar kelgusida traktorimni boshqarmoqchi. Niyatiga yetsin.

3-ilovadagi "Siz rahbarlik qilayotgan sinfda o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda darsning imkoniyatlaridan qanday foydalanasiz?", - degan savolga 3-"A" sinf rahbari Xosiyat Shodiyevaning javobi:

- Dars o'quv jarayonining asosini tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda "O'qish", "Odobnoma", "Matematika", "Tasviriy san'at", "Ona tili", "Musiqqa", "Mehnat" darslarining imkoniyatlari yetarli. Ushbu darslarda bevosita kasb-hunarga oid mavzular ajratilgan. Qolaversa tegishli mavzulardan foydalanish o'quvchining

bilimi, mahoratiga bog'liq deb bilaman. O'quvchilarning o'zlari tanlagan kasb egalari bo'lib, el-yurtga nafi tegsin deb niyat qilaman. Bu uchun bor kuch-g'ayratimni ayamayman.

4-ilovadagi birinchi “Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini qanday izohlaysiz?”, - degan savolga maktab direktori N.Mamatqulova shunday javob berdi:

- Bugungi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, o'quvchining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda psixologik yondashuvga alohida e'tibor berilmoqda. Bu jarayon mavsumiy bo'lmay, doimiy vazifaga aylandi. Mehnat bozoridagi talab va taklif o'rganilib, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari yanada takomillashtirilmoqda. Bundan maktabimiz jamoasi ham mustasno emas.

Ushbu savollar asosida maktabdagi boshlang'ich sinf o'quvchilaridan 293 nafaridan 148 nafari tajriba guruhiga, 145 nafari nazorat guruhlariga jalb qilindi.

Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar biz taklif qilgan asosda, nazorat guruhlarida esa an'anaviy uslubda amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida tavsiya etilayotgan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotchi va ta'lim muassasasining tajribali o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishdi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichi qaysi kasbga moyilligi borligini bilish, natijalarni tahlil qilish, ular bilan ishlash yo'nalishlarini belgilab olishni maqsad qilib qo'ydik.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishning tashkiliy asoslari va metodikasini belgilashda pedagogika fanlari nomzodi P.Xolmatovning tadqiqot ishlaridan foydalandik.

Muallifning ushbu metodi orqali kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish bilan birga muayyan kasblarga nisbatan qiziqishlar darajasini aniqladik.

1-jadval 1-so'rovnomaning “Siz qanday kasblarni bilasiz?”, - deb berilgan savolga javoblar tahlili.

Javoblar turi	1-savol						2-savol					
	1-o'tkazish		Jami	2-o'tkazish		Jami	1-o'tkazish		Jami	2-o'tkazish		Jami
	3-"A"	3-"B"		3-"A"	3-"B"		3-"A"	3-"B"		3-"A"	3-"B"	
	N	T.s	N	T.s	N	T.s	N	T.s				
To'g'ri	12	26	38	16	28	44	18	30	48	22	34	56
Noaniq	90	12	102	16	12	28	16	11	27	16	9	25
Noto'g'ri	28	12	40	14	10	24	16	9	25	10	9	19
Jami:	130	50	180	46	50	96	50	50	100	48	52	100

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish darajasi 3-4 – sinf o'quvchilari bola tajriba-sinov ishlarimizni olib borish davosmida sezilarli o'sdi.

Olingan natijalarning tahliliga o'quvchilarning kasbga yo'naltirilganlik darajalari belgilab olindi.

1-darajaga kasbga yo'naltirilganlik darajasi sust bo'lgan o'quvchilarni kiritdik. Bunday o'quvchilar kasblar to'g'risida tor ma'lumotga ega. Ular boshqa vazifalar bilan bog'liq vazifalarda kasbiy bilimlarni egallaydi. Bunday o'quvchilar kelajakdagi kasbiy faoliyati to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lmaydilar, olgan bilimlarini maqsadli rivojlantira olmaydi.

2-darajaga o'rtacha kasbiy yo'naltirilgan darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar. Bu guruhga kirgan o'quvchilar o'zlari yashaydigan mintaqaga oid kasblar to'g'risida tushunchaga ega, ammo ular o'z shaxsiy sifatlari va bilim darajasiga javob beruvchi aniq shakllangan kasblar doirasini belgilab olmagan. Shu bois ularda ma'lum bir kasblarga qiziqish davriy xususiyatga ega bo'ladi va vaqt o'tishi bilan o'zgaradi.

3-darajaga yuqori kasbiy yo'naltirilgan darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar. Bu guruhdagi o'quvchilar turli kasblar to'g'risidagi aloqadorlikni va umumiy jihatlarni aniqlay oladi.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlari bo'yicha Jizzax viloyati Paxtakor tumanidagi 7-umumta'lim maktabida o'tkazilgan tadqiqot natijalari yuqorida keltirilgan darajalashtirish mezoni bo'yicha guruhlariga ajratildi. O'quvchilar soni umumlashtirilib, tajribagcha bo'lgan va tajribadan keyingi o'zlashtirish

ko'rsatkichlari aniqlandi. Tajribagacha 160 (53.3 %) nafar quyi darajadagi, 60 (20 %) nafar o'rta darajadagi va 80 (26.7 %) nafar yuqori darajadagi o'quvchilar ekanligi ma'lum bo'ldi. Tajriba-sinov ishlaridan keyin 33 (10.4 %) nafar o'quvchining kasb-hunar to'g'risidagi tushunchasi quyi darajada, 80 (40 %) nafar o'quvchining kasb-hunar to'g'risidagi tushunchasi o'rta darajada, 100 (50 %) nafar o'quvchining kasb-hunar to'g'risidagi tushunchasi yuqori darajada ekanligi ma'lum bo'ldi. Ushbu natijalar bo'yicha o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishining o'sish darajasi quyidagi matematik formulalarda tekshirildi.

Demak, bunda P_k -30 % quyi, 30 % o'rta va 40 % yuqori.

V_k -esa 10 % quyi, 40 % o'rta va 50 % yuqori darajadagi qiymatlarga ega bo'ldi.

Buni x^2 (iks kvadrat) quyidagicha ifodalanadi.

$$x^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)}{P_k}$$

Bu topilgan qiymatlar hisoblanganda quyidagi natijani berdi:

$$x^2 = \frac{(60 - 20)}{60} \cdot \frac{(80 - 60)}{80} \cdot \frac{(100 - 80)}{80} \approx 38.2$$


Demak, kvadrat chetlatish $x \approx 6.2$ ga teng bo'ladi. Bunda $T_{\text{kuzatish}} > T_{\text{Kritik}}$ ekanligi qo'llanilgan tadqiqot g'oyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish samarali natija berishidan dalolat beradi.

Tadqiqot dissertasiyasini ushbu formula bilan

$$\bar{S} = \sqrt{\bar{S}^2} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n (X_k - X)^2}{n}} \quad \text{hisoblaymiz.}$$

Baholashga ko'ra₂: tadqiqot (σ) – dispersiyasi

$$\sigma^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (x^- - x_i)$$



Bu (xi-kvadrat) quyidagicha ifodalanadi.

$$X^2 = \sum_{k=1}^m \frac{(V_k - P_k)^2}{P_k}$$

m	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
X_k	8	10	6	6	7	3	6	12	8	4

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{k=1}^N X_k \quad \bar{X} = \frac{1}{10} \sum_{k=1}^{10} X_k = \frac{70}{10} = 7$$

Demak, o'rta arifmetigi 7 ekanligini ko'rish mumkin.

Agarda $T_{\text{kuzatish}} > T_{\text{kritik}}$ bo'lsa, sinflarida qo'llanilgan tadqiqot g'oyalari asosida, o'qitish afzalliklari haqida gapirish mumkin.

Bundan $X \approx 2,5$ ekanligi $T_{\text{kuz}} > T_{\text{kri}}$ dan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish asosida ushbu jarayonning ba'zi jihatlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni bir tizimga keltirish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Har bir o'quvchi ertamiz bunyodkori. Uning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab, hozirdanoq aniq maqsad sari yo'naltirish, yetuk mutaxassis tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatning buyuk kelajagini esa aynan o'z kasbining ustasi bo'lgan kishilargina yaratadi. Boshqacha aytganda o'quvchi boshlang'ich sinfdan turli kasb-hunar haqida ma'lumotga ega bo'lsa, qobiliyat va qiziqishlari bir maqsad sari yo'naltirilsa, kelgusida o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishadi.

Shu bois mavzuga oid ilmiy-nazariy, uslubiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish hamda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi xulosaga keldik:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan takomillashtirilishi lozim;
2. Kichik yoshdagi o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish, ularni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda o'quv predmetlarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, bu jarayonni yangi pedagogik texnologiya asosiga qurish boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshiradi;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishni mavsumiy emas, muntazam yo'lga qo'yish zarur;
4. Pedagog-psixolog olimlar tomonidan boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishning uchun metodik qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, joylarga yetkazish kerak;
5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni zamon talablari asosida yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq;
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda oila, maktab, mahalla hamkorligini kuchaytirish talab etiladi;
7. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda tarixiy tajribadan, udum va an'analardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish;

8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda "Boshlang'ich ta'lim" jurnalining materiallarini o'rinli qo'llash;

9. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda mintaqaviy shart-sharoitlarni hisobga olish;

10. Kichik sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo'ladi.

TAVSIYALAR

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish uchun ularga mos axborotlarni tanlash;

2. Kichik sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda dars jarayonining imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish;

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda xalq pedagogikasi yutuqlarini qo'llash;

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish uchun har jihatdan talabga javob beradigan dars va darsdan tashqari tadbirlarning ishlanmalarini tayyorlash;

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish uchun ularga mos dars beradigan o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalarini e'tiborga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992, -46 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O'zbekiston, 1999, -37 b.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O'zbekiston. 1998. -686 b.
5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –T.: Sharq, 1997. -63 b.
6. Prezident Islom Karimovning Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqidan kelib chiqqan holda Xalq ta'limi vazirligining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda “Ta'lim to'g'risida”gi qonunlarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tadbirlar. O'zR XTV. –T.: Sharq. 1997. -63 b.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq merosi. 1993. -224 b.
8. Bepalko V.P. Slagayemye pedagogicheskiye texnologii. –M.: Pedagogika. 1989. -192 s.
9. Bulatov S.S. Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy-an'anaviy asoslari (metodik tavsiyanoma). –T.: R.M. 1999. -20 b.
10. Davlatov K.D., Chichkov V.A. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash. –T.: O'qituvchi. 1978. -144 b.
11. G'afforova T. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. –T.: Tafakkur. 2011. -166 b.
12. Hafizova N.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish texnologiyasi. 13.00.01-Pedagogika tarixi va nazariyasi. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. –T.: 2011. 20 b.
13. Kasb tanlashga yo'llashga yo'llash. Metodik tavsiyanoma. /S.Boltaboyev, R.G.Mullaxmetov, V.N.Sattarov. –T.: 2000.
14. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqlol. 1994. -166 b.

15. Magzumov P.T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. –T.: O'qituvchi. 1991. -206 b.
16. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. //O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar: J.Fozilov, V.Sultonov, H.Saidov. –T.: Ma'rifat-madadkor. 2000. 135-149 b.
17. Mavlonova R. Mehnat. 3-sinf uchun darslik. –T.: Mehnat. 1993. -128 b.
18. Mavlonova R. Mehnat. 4-sinf uchun darslik. –T.: Mehnat. 1995. -160 b.
19. Mavlonova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1986. -248 b.
20. Mehnat ta'limidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. Ta'lim taraqqiyoti. IV maxsus son. 1999.
21. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston. 2001. -80 b.
22. Muranov B.I. Hozirgi sharoitda yoshlarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida xalq hunarmandchiligining o'rni. //J. Problemai professionalnogo obrazovaniya. –T.: Fan. 1996. 279-284 b.
23. Pedagogika. // A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. –T.: O'qituvchi. 1996. -200 b.
24. Qurbonov Sh. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1998. -184 b.
25. Shodiyev N.Sh. Qishloq maktablarida umumiy ta'lim fanlarini o'rganishda o'quvchilarni meliorasiya kasblariga yo'llash. –T.: O'qituvchi. 1978. -112 b.
26. Shodiyev N.Sh. Qishloq xo'jalik ishchi kasblari. –T.: O'qituvchi. 1981. -17 b.
27. Shodiyev N.Sh. Sanoat ishchi kasblari. –T.: O'qituvchi. 1992. -128 b.
28. Shodiyev N.Sh. Studentlarga o'quvchilarni kasbga tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish. –T.: O'qituvchi. 1987. -232 b.
29. Shodiyev N.Sh. Vneklassnaya i vneshkolnaya rabota proforiyentatsii uchashixsya. –T.: Fan. 1988. -112 s.
30. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. // O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar: J.Fozilov, V.Sultonov, H.Saidov. –T.: Ma'rifat-madadkor. 2000 y. 101-135 b.

31. Tolipov O'., Razzoqov D., Bobojonov Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish kabinetlarini tashkil etish. Uslubiy qo'llanma. O'zPFITI ofset laboratoriyasi. –T.: 1999 y.
32. Tursunov I.I., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. –T.: O'qituvchi. 1997. -232 b.
33. Meliyev H. Ilmiy-adabiy manbalarda kasb-hunarga yo'naltirish masalasi. / "Xalq ta'limi" jur. 2010. 49-52 betlar.
34. Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash. 13.00.02-Mehnat ta'limi nazariyasi va metodikasi. Ped.fan.nomz.diss. Guliston. 2004. -134 b.

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunar
to'g'risidagi tushunchalarni o'rganish**

SO'ROVNOMASI

Hurmatli, o'quvchi. Ushbu savollar sizni kasblar to'g'risidagi tushunchalaringizni aniqlash maqsadida o'tkazilmoqda. Savollarga mustaqil holda (bir-biringizdan ko'chirmasdan) javob berishingizni so'raymiz.

1. Siz qanday kasblarni bilasiz?

2. Siz tanlagan kasbga oiladagilarning munosabati?

3. Qaysi fanlarga ko'proq qiziqasiz?

4. Tanlagan kasbingizning qaysi jihatlari sizni ko'proq qiziqtiradi?

5. Sizingcha kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak?

6. Siz tanlagan kasbingiz bo'yicha biror korxonaga yoki fermer xo'jaligingizga bordingizmi?

7. Siz tahsil olayotgan maktabda qaysi kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazilgan?

Kichik yoshdagi o'quvchilarning ota-onalariga farzandlaringizning kelajakda qanday kasb-hunar egasi bo'lishini aniqlash

SO'ROVNOMASI

Hurmatli, ota-ona. Farzandingizni kelajakda qanday kasb-hunar egasi bo'lishini xohlaysiz? Savollarga qisqa va aniq javob berishingizni so'raymiz.

1. Farzandingizni kelajakda qaysi kasb-hunar egasi bo'lishini istar edingiz?

2. Farzandingizni kelgusida qaysi kasb-hunar egasi bo'lishi to'g'risida suhbatlashib turasizmi? Ular bilan fikringiz mosmi?

3. Farzandlaringiz sizlarning kasblaringizga qiziqadimi?

4. Dilbandingiz oilada bo'sh paytlarida qanday yumushlar bilan shug'ullanadi?

5. Farzandingiz tanlagan kasbga qanday tayyorgarlik ko'rayapti?

6. Kasb tanlash to'g'risida farzandingizning o'qituvchisi bilan suhbatlashib turasizmi?

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni
shakllantirish yuzasidan sinf rahbarining olib
borayotgan ishlarini o'rganish uchun**

SO'ROVNOMA

Hurmatli, ustoz. Ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Savollarni sinchiklab o'rganib, mustaqil javob berishingizni so'raymiz.

1. Siz rahbarlik qilayotgan sinfda o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish bugungi kun talablari darajasidami?

2. O'quvchilarda kasb-hunar to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda darsning imkoniyatlaridan qanday foydalanasiz?

3. Darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning pedagogik shart-sharoitlaridanchi?

4. Ota-onalar bilan bu masalada maslahatlashib turasizmi?

5. O'quvchilar bilan qaysi kasb egalarining uchrashuvlarini o'tkazgansiz?

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda ko'proq nimalarga e'tibor berishimiz lozim. Fikringizni yozing?

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni
shakllantirish yuzasidan maktab rahbarlarining olib**

borayotgan faoliyatini o'rganish

SO'ROVNOMASI

Hurmatli, ustozlar. Siz rahbarlik qilayotgan ilm dargohida kichik yoshdagi o'quvchilarda kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirish yuzasidan qanday ishlar olib borilmoqda, tadbirlar belgilangan. Anketamiz savollariga xolis javob berasizlar degan umiddamiz. So'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Javoblar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

1. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini qanday izohlaysiz?

2. Bolalarning kasb-hunar egasi bo'lib voyaga yetishishida oila, mahalla, maktab hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan?

3. Siz rahbarlik qilayotgan ziyo maskanida qanday to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda?

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kasb-hunarga oid tushunchalarni shakllantirishda maktab psixologining amaliy yordami qanday bo'layapti?

5. Ilm dargohingizda turli kasb egalari bilan uchrashuvlar o'tkazilib turiladimi?

6. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining pedagog-psixologlari maktabingizda bo'lib, kasb-hunarga oid suhbatlar uyushtirganmi?

**7-umumta'lim maktabida 2012-2013 o'quv yilida 1-A sinfga qabul qilingan
o'quvchilar ro'yhati**

№	Familiyasi Ismi	Izoh
1	Ziyadullayev Ulug'bek Nurmuhammad o'g'li	
2	Otaboyev Nosir Sherali o'g'li	
3	Amirov Jasurxo'ja Zafar o'g'li	
4	Jo'layev Bobur Nodirboy o'g'li	
5	Nematov Jo'rabek Shodiyor o'g'li	
6	Raxmatullayev Umid Mamadali o'g'li	
7	Abdullayev Abdumalik Abdurasul o'g'li	
8	Xayitboyeva Sevinch Anvar qizi	
9	Ro'zimurotova Gulondon To'gaymurot qizi	
10	Mirzaboyev Diyorbek Rashid o'g'li	
11	Asqarov Dilshodbek O'ktam o'g'li	
12	Ergasheva Sarvinoz Mansur qizi	
13	Raxmatova Marjona O'tkir qizi	
14	Fozilov Ibroxim Doniyor o'g'li	
15	Egamqulova Shahzoda Ravsha qizi	
16	Yaxshiliqov Jasur Nodir o'g'li	
17	Ubaydullaev Asilbek Baxtiyor o'g'li	
18	Toshpo'latova Iltijo Toshpo'lat qizi	
19	Qo'chqorov Forxod Axror o'g'li	
20	Saidaxmedova Dilnoza Fayzulla qizi	
21	Voxidova Nozimaxon Erkin qizi	
22	Qurbonov Sarvarbek Mansur o'g'li	
23	Tog'oymurodov Elmurod Xolmurod o'g'li	
24	Rayhonov Javohir Alisher o'g'li	
25	Nuriddinov Ulug'bek Faxriddin o'g'li	
26	Uzoqov Shavkat Komoliddin o'g'li	
27	Esirgapova Sarvara Alisher qizi	
28	Eshonqulov Firdavsbek Boxodir o'g'li	
29	Boboqulova Shohista Xalim qizi	
30	Abadov Dilshod Bohodir o'g'li	
31	Hamdamova Ruqshona Botir qizi	

Sinf rahbari:

Xudoyberdiyeva Yu.

**7-umumta'lim maktabida 2012-2013 o'quv yilida 1-B- sinfga qabul qilingan
o'quvchilar ro'yhati**

№	Familiyasi Ismi	Izoh
1	Abbosov Jovlonbek Johoongir o'g'li	
2	Abdurashidov Shahobiddin Iskandar o'g'li	
3	Abdusamatov Javlon Rashid o'g'li	
4	Abdusamatova Gulyora Murod qizi	
5	Alimov Abdujalil Erkin o'g'li	
6	Amanov Islom Botir o'g'li	
7	Amirullayev Asadbek Ashurboy o'g'li	
8	Ashurov Muzaffar Qahromon o'g'li	
9	Dovirboev Abbas Akrom o'g'li	
10	Esirgapova Sarvinoz Shuhratqizi	
11	Ilxomova Mahliyo Ilhom qizi	
12	Ismatullayev Shahzod Shodlik o'g'li	
13	Jo'rabekova Dilnura Rustam qizi	
14	Kenjaboyev Akbarjon Norboy o'g'li	
15	Norqo'ziyev Mirjalol Alisher o'g'li	
16	Nuriddinov Boburjon jaloliddin o'g'li	
17	Obidov Yusufxon Sobirxon o'g'li	
18	Oqmurodov Abror Jo'raqul o'g'li	
19	Rasulova Mohinur Sharofqizi	
20	Subhonova Marjona Odil o'g'li	
21	Tog'aynazarov Ozodjon	
22	To'g'ilov Sarvar Nurmuhammad o'g'li	
23	Usanova Gulchexra Jo'rabek qizi	
24	Xamrayev Sayfiddin Saidqul o'g'li	
25	Xikmatullayeva Ozoda Sanjar qizi	
26	Xojiboqiyev Diyorbek Esonbek o'g'li	
27	Xolbo'taev Umidjon Sharof o'g'li	
28	Yassaqov Akbarali O'rolboy o'g'li	
29	Shamsiddinov Orifjon Saidqozim o'g'li	
30	Chulbayeva Diyora Rustambek qizi	

Sinf rahbari:

Sattorova F.

**Ahmad Yassaviy nomli 7-umumiy o'rtatalim maktabining 2012-2013 o'quv
yilidagi 4-b-sinf bitiruvchilar ro'yxati**

№	O'quvchilarning ismi familiyasi	Izoh
1	Abdurasulova Hilola	
2	Abdusamatova Nozima	
3	Achilov Aziz	
4	Ahrorova Farangiz	
5	Ashurboyev Asadbek	
6	Axrirqulov Sardor	
7	Bayoqulov Asilbek	
8	Egamqulova Sevara	
9	Erkaboyev Akmal	
10	G'aniqulov Dildshod	
11	G'aybullayev Sunnat	
12	Hamraqulov Quvonchbek	
13	Ismatullayeva Sevinch	
14	Isoqov Umid	
15	Jumanova Munisa	
16	Murodov Samandar	
17	Nizomiddiniy Shahboz	
18	Normamatova Iroda	
19	Nuriddinov Sallohiddin	
20	O'rolov Baxtiyor	
21	Po'latov Nurmuhammad	
22	Po'latov Tohir	
23	Qalandarova Maftuna	
24	Raxmatullayev Islom	
25	Safarova Sevara	
26	Shamsiddinov Olim	
27	To'g'aynazarova Setora	
28	To'rayev Otabek	
29	Tursunboyev Mirzohid	
30	Umurzoqov Norbek	
31	Xolbo'tayeva Husnora	
32	Yaxshiliqova Maftuna	
33	Yodgorov Zikr	

Sind rahbari

To'raqulova S.

**Ahmad Yassaviy nomli 7-umumiy o'rtata'lim maktabining 2012-2013 o'quv
yilidagi 4-A-sinf bitiruvchilar ro'yxati**

№	O'quvchilarning ismi familiyasi	Izoh
1	Alimov Behzod	
2	Abdurahmonov Umid	
3	Aliyev Jasur	
4	Boboqulova Madina	
5	Elmurodova Mahbuba	
6	Esirgapov Jahongir	
7	Esirgapov Javohir	
8	Fayzullayeva Dinora	
9	Jumanazarov Shaxzod	
10	Lapasova Maftuna	
11	Murodqobilov Shohruh	
12	Rayhonov Jahongir	
13	Saidqulov Shohboz	
14	Tursunqulova Kamola	
15	Totliboyev Begzod	
16	Umurzoqova Aziza	
17	Usmonov Ilhonjon	
18	Usmonova Shaxnoza	
19	Voxidova Nafisa	
20	Xaliiov Asilxo'ja	
21	Xudoyberdiyev Asadbek	
22	Xudoyberdiyev Jaxongir	
23	Xoliqulov Hojakbar	
24	Shokirova Sarvinoz	
25	Chilmirzayeva Odina	
26	Toshpo'latova Maftuna	
27	Karimova Shohida	

Sinf rahbari:

Sattarova F.

**Paxtakor tuman XTBga karashli 7- umum ta'lim maktab 2012-2013 o'quv
yilida 2-A - sinfga qabul qilingan o'quvchilar ro'yxati**

№	O'quvchilarning ismi va familiyasi	Izoh
1	Abbosova Sabina Hoshimjon qizi	
2	Abdullayev Samandar Abduvaxob o'g'li	
3	Abduxolikov Fazliddin Erkin o'g'li	
4	Axrolkulova Charos Muxtor qizi	
5	Amirov Abdumannon Umirzoq o'g'li	
6	Boynazarova Mashxura Baxtiyor qizi	
7	Bozorboyev Shaxzod Aktam o'g'li	
8	Bozorboyev Asadbek Olim uti	
9	Xamdamov Nazarbek Botir yfnn	
10	Ilashov Akbarjon Baxtiyor yfnn	
11	Karimov Raxmon Shuxrat o'g'li	
12	Lapasova Mahliyo Krdir qizi	
13	Nasurullayev O'tkirbek Xurshid o'g'li	
14	Ne'matullayeva Maftuna Murodulla qizi	
15	Pulaton Urol Akbar o'g'li	
16	Kuchkorov Farruxbek Anvar o'g'li	
17	Saparova Sevinch Shuxrat qizi	
18	Tursunkulov Shaxjoxon Xusniddin o'g'li	
19	Tursunboyeva Dilnura Obid qizi	
20	Turgunov Berdimurod Arip o'g'li	
21	Tursunov Samandar Tinchlik o'g'li	
22	Usanov Bekzod Odil o'g'li	
23	Usmonova Marjona Sherali qizi	
24	Ubaydullayev Diyorbek Akmal o'g'li	
25	Okmurodov Anvar Juraqul o'g'li	
26	Xudoyberdiyev Joxongir Azam o'g'li	
27	Xayrullayev Eldorxuja Abdusamat o'g'li	
28	Yalgoshova Xolida Orif qizi	
29	Zaynullayeva Marjona Xusniddin qizi	
30	Urolov Bekruz O'ktam o'g'li	
31	Urolova Durdona Sunnat qizi	
32	G'oziqulov Hasanjon Baxtiyor o'g'li	
33	G'oziqulov G'usanjon Baxtiyor o'g'li	
34	Chilmirzayev Dilmurod Komil o'g'li	

Sinf rahbari Salayeva R.